


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**“Texnologik mashinalar va jihozlar(Oziq-ovqat sanoati
mashinalari va jihozlari)” yo`nalishi bakalavriyat
talabalari uchun**

«Oziq-ovqat sanoati mashinalari va jihozlari»
fanidan tajriba ishlarini bajarish uchun

Uslubiy qo'llanma



BUXORO – 2022

Taqrizchilar:

Gafurov K.X.- “OO va KSM va J”

kafedrasi dotsenti

Jumaev J.- BuxDU “Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari” kafedrasi dotsenti

Tuzuvchilar:

Saidmuratov O`A. - “OO va KSM va J”

kafedrasi dotsenti

Bux MTI uslubiy kengashining

18 martdagি 2022 yil № 7 majlisi

Bayoni bilan chop qilishga

tavsiya qilindi

«Oziq-ovqat va kimyo sanoati

mashina va jihozlari»

kafedrasining 2022 yil 10 fevraldagi

yig’ilishining № 12 bayoni bilan

uslubiy kengash muhokamasiga

tavsiya qilindi.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| Kirish..... | 4 |
| Tajriba ishi № 1. Donador qishloq xo'jaligi xom-ashyosini kalibrovkalash va saralash uskunalari konstrukziyasi va ishlashini o'rghanish..... | 5 |
| Tajriba ishi № 2. Oziq-ovqat xom-ashyolarning maydalash uskunalari. Maydalangan mahsulotlarni saralash va boyitish uchun uskunalar konstrukziyasi va ishlashini o'rghanish..... | 11 |
| Tajriba ishi № 3. Suyuq bir xil bo'limgan oziq-ovqat muhitini ajratish uchun uzkunalar konstrukziyasi va ishlashini o'rghanish..... | 19 |
| Tajriba ishi № 4. Oziq-ovqat muhitini aralashtirish uskunalari konstrukziyasi va ishlashini o'rghanish..... | 28 |
| Tajriba ishi № 5. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda qo'llaniladigan shakl beruvchi jihozlar konstrukziyasi va ishlashini o'rghanish..... | 43 |
| Tajriba ishi № 6. Oziq-ovqat muhitida quritish apparatlari. Oziq-ovqat muhitida qovurish va pishirish jarayonidagi uskunalarni o`rganish..... | 59 |
| Tajriba ishi № 7. Oziq-ovqat muhitini diffusiya va ekstraksiya jarayonlarini o'tkazish uskunalari. konstrukziyasi va ishlashini o'rghanish..... | 77 |
| Adabiyotlar..... | 94 |

Kirish

Agrosanoat majmuasida ilmiy-texnik taraqqiyot murakkab dinamik jarayondir. Bu yangi bilim va g'oyalarni shakllantirish, ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar, izlanishlar va ishlanmalarining texnologik rivojlanishi, ixtiro shaklidagi yangiliklarni joriy etish, ilg'or texnika va texnologiyalar, yangi turdag'i xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, qo'shimchalar, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarishni tashkil etishning optimal shakllarini tanlash, shuningdek, ilmiy-texnik faoliyatning boshqa muhim turlari bilan birgalikda innovatsion jarayonni tashkil etadi.

Oziq-ovqat sanoati va oziq-ovqat mashinasozligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu yuqori samarali texnologik uskunalarni yaratishdir, ular progressiv texnologiyadan foydalangan holda mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi, atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytiradi va xom ashyni , yoqilg'i, energiya va moddiy resurslarni tejashga yordam beradi.

Oziq-ovqat sanoatida qo'llaniladigan mashina va qurilmalar shunday materiallardan yasalgan bo`lishi kerakki, bu materiallar tarkibida inson organizmiga salbiy ta'sir ko`rsatadigan moddalar bo`lmasligi, xom-ashyo bilan o`zaro kimyoviy reaktsiyaga kirishmasligi kerak.

Respublikamiz iqtisodiyotini yetuk mutaxassislar bilan ta'minlash oliy ta'lim tizimi oldiga qo`yilgan asosiy vazifa hisoblanadi. Bu borada olib borilayotgan ishlarda «Texnologik mashinalar va jihozlar» (oziq-ovqat sanoati) yo`nalishi bo`yicha tayyorlanayotgan bakalavr darajasidagi kadrlarning ham o`z mavqelari mavjud.

Ushbu uslubiy qo'llanmasi oliy o'quv yurtlarining “Texnologik mashina va jihozlar” (oziq-ovqat sanoati) yonalishida hamda shunga turdosh yo`nalishlarda tahlil olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan bo`lib, undan soha bo`yicha o`qituvchilar, magistrlar va bevosita ishlab chiqarish korxonalarida mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

1-Tajriba ishi.

Donador qishloq xo'jaligi xom-ashyosini kalibrovkalash va saralash uskunalarini konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning maqsadi: Donador qishloq xo'jaligi xom-ashyosini kalibrovkalash va saralash uskunalarini konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning mazmuni:

1. Diskli saralash mashinasini konstruktsiyasini, ekspluatatsiya qilish va ishlash printsiplarini o`rganish.
2. Donni mineral aralashmalardan tozalash mashinasini ekspluatatsiya qilish va ishlash printsiplarini o`rganish.
3. Unumdorligi va talab qilinadigan quvvatni hisoblash.

Ish joyining jihozlari: Diskli saralash mashinasi, donni mineral aralashmalardan tozalash mashinasi va ko`rgazmali materiallar.

Umumiy m`lumotlar. *Kalibrlash* - mahsulotni shakli va og'irligi bo'yicha taxminan bir xil o'lchamdagи guruhlarga bo'lish.

Saralash - mahsulotni taxminan bir xil sifat va etulish darajasidagi guruhlarga bo'lish.

Yuqoridagi operatsiyalarni bajarayotganda, mashinalar meva va sabzavotlarni taxminan bir xil o'lchamli bo'laklarga ajratadi, bu esa oziq-ovqat xom ashysini qayta ishlashning keyingi bosqichlarining bir xil va sifatli o'tishini ta'minlash uchun ishlov berishga imkon beradi.

Qishloq xo'jalik xom ashysini tekshirish, kalibrlash va saralash ularning texnologik xususiyatlarining farqiga asoslanadi. Shunday qilib, yashil no'xat, makkajo'xori, tarvuz va boshqalar pishganda ularning zichligi o'zgaradi. Bu xususiyat gidravlik tasniflagichlarda saralash uchun ishlatiladi.

Tekshirish ba'zan stollarda o'tkaziladi va ko'p hollarda u qo'lda, tasmali (lentali) yoki rolikli konveyerlar o'tkaziladi, ular bo'ylab xom ashyo bir qatlama harakatlanadi, chunki ko'p qatlamlili yuklashda yuqori mevalar pastki qismini yopadi, natijada tekshirish qiyin.

Xodimlar konveyerning har ikki tomonida har 0,8 ... 1,2 m masofada joylashgan bo'lib, yaroqsiz namunalarni tanlab, ularni chiqindilar uchun maxsus yig'uvchilarga (cho'ntaklarga) tashlab yuborishadi. Yaxshi sifatli xom ashyo konveyer tasmasida qoladi va dushdan yuvilgandan keyin, keyingi ishlov berish uchun o'tkaziladi.

Oddiy ish sharoitlari chiziqli tasma (lenta) tezligida 0,08 ... 0,10 m / s, kamarni bir qatlamda xomashyo bilan bir xil yuklanishi va xonaning yaxshi yoritilishi ta'minlanadi. Konveyerning yuqori tezligi bilan xom ashyo sifatini nazorat qilish va ularni to'g'ri saralash qiyin.

Don aralashmalarini saralash va kalibrlashda ishqalanish va elastiklik koeffitsientlarining farqi hisobga olinadi.

Saralash bilan bir vaqtida xom ashyni tekshirish o'tkaziladi, bunda nuqsonli namunalar (chirigan, shikastlangan, singan, mog'orlangan, og'ir ifloslangan), ifloslangan va zararlanganlari olib tashlanadi.

Eng oson yo'li-mahsulot asta-sekin o'zgaruvchan kesimli teshiklari bo'lган egilgan tebranuvchi elak bo'ylab harakatlanishi.

Ushbu echimni biroz o'zgartirib, ya'ni o'zgaruvchan kesimli panjaradan silindrsimon baraban yasab, unga aylanish harakati berib, aylanma baraban kalibrash bajariladi.

1.Diskli saralash mashinalari.

Bu kalibrash mashinalarning chiziqli kalibrash mashinalardan farqi shundaki, bularda teshik aylana shaklida o`ralgan bo`ladi.

Diskli kalibrash mashinalarida meva va sabzavotlarni 3-4 xil o`lchamda ajratib olishi mumkin.

Ishlash tartibi. Ishchi g'ildiragi valga o'rnatilgan bo'lib, unga pag'onalar joylashtirilib, ular vtulkalarga kavsharlangan bo'ladi. G'ildiraklarning ikki tomoniga tashqi va ichki yoysimon yo`laklar o'rnatilgan bo'ladi. Ular ushlagichlarga mahkamlangan. Ushlagichlar bolt orqali burchak ostida joylashgan qurilmalarga shunday o'rnatiladiki, qaysiki g'ildirak bilan yoysimon yo'llar orasidan masofani xom-ashyo kattaligiga qarab rostlash mumkin bo'lsin. G'ildirak bilan yoysimon yo'llar orasidagi

oraliq masofani o`zgartirib avval kichik o`lchamdagи mevalar keyin katta o`lchamdagи mevalarni ajratib olish mumkin.

G`ildirak val yordamida tishli uzatgichlar yordamida elektrodvigatel' vositasida aylanma harakatga keltiriladi.


Burchak ostida joylashgan qurilmalar taglikga mahkamlanib kalibrash mashinasining harakatlanmas qismlarini mahkam ushlab turadi.

2.Donni mineral aralashmalardan tozalash mashinalari.

Mineral aralashmalarning tarkibi turlichadir. Bu mayda shag`gal, ko`mir bo`laklari, ruda (tog` jinsi), tuproq, kesak va shunga o`xshaganlar bo`lishi mumkin.

Dondan mineral aralashmalarni ajratib olishda ularning zichligi (1,9...2,7 g/sm 53 0) asosiy rol o`ynaydi. U don zichligi (1,3...1,4 g/sm 53 0)dan deyarli ikki marta katta. Bu komponentlar ning ishkalanish koeffitsienti bo`yicha farqi ham ularning bir-biridan ajralishiga imkon beradi.

Caralash yuzasining tebranma harakati va havo oqimi ta'sir ostida don qatlami bo`shashib ichki ishqalanish koeffitsienti kamayadi (1.1-rasm). Don aralashmasi mavhum oquvchan holatga o'tadi. Bunday qatlamda har xil tabiatli qismlarning o`z-o`zidan saralanish holati yuzaga keladi: og`irroq qismlar pastki qatlamga tushib saralash yuzasini buylasa, zichligi nisbatan kichikroq bo`lgan don guruhi esa ustki qavatga chiqib qoladi. Qavatlarga ajralgan aralashmada guruhlarning qarama-qarshi yo`nalishda titrab ajralish jarayoni yuzaga keladi.



1.1-rasm. Don aralashmasi guruhlarining pnevmottrash jarayonida ajralish prinsipi I - dastlabki don aralashmasi; II - tozalangan don; III – mi neral aralashmalar; IV - havo va yengil aralashmalar.


Saralash yuzasi bo‘ylab mahsulotni qiyalab yuqoriga tashish jarayoni ma’lum kattaliklar: kinematik parametrlar, saralash yuzasining qiyalik burchagi va ishkalanish koeffitsienti hamda mahsulot yuklamasining birgalikdagi ta’siri natijasida yuzaga keladi. Agar havoning ta’siri bo‘lmasa, don aralashmasining barcha tarkibiy qismlari saralash yuzasi bo‘ylab yuqoriga harakat qilgan bo‘lardi. Havoning aeratsiya ta’siri ostida donning mavhum qaynagan qatlami deyarli dekaning (tashuvchi) ta’sir doirasidan chiqib qiyalik ostida pastga qarab xuddi suyuqlik singari "oqadi". Pastki qavatda joylashib, g‘adir-budir saralash yuzasiga tegib turgan og“ir mineral qismlar esa nishablikka qarshi yuqoriga qarab harakatlanadi va dekaning toraygan yuqorigi qismi orqali mashinadan chiqariladi.

Toshajratish mashinalarining ish samaradorligi va unumdorligiga quyidagi omillar: tebranish chastotasi, amplitudasi va yo‘nalishi, havo oqimining tezligi, dekaning qiyalik burchagi va yuzasining ishqalanish koeffitsienti, don va mineral aralashmalar zichliklari orasidagi tafovut, donning yuklamasi va namligi muhim ta’sir ko‘rsatadi. Donni mineral aralashmalardan tozalash samaradorligi 95 %dan kam bo‘lmasligi kerak.

R3-BKT rusumli toshajratish mashinalarining asosiy konstruktiv elementlari bo‘lib tebranma stol, qabul va chiqarish moslamalari, suruvchi diffuzor, titratgich va sinch tashkil qiladi.

R3-BKT-100 rusumli toshajratish mashinasи (1.2-rasm)

Mashinaning tebranma stoli rama (26)dan tashkil topgan bo‘lib, ramaga o‘z navbatida deka mahkamlangan. Uning asosi bo‘lib teshik o‘lchamlari 1,5x1,5 mm li metall turdan yasalgan havo o‘tkazuvchan saralash yuzasi xizmat qiladi. To‘r ustiga teshik diametri 3,2 mm bo‘lgan havo tekislovchi taglik o‘rnatilgan. Tebranma stol korpus (8) yordamida zich qilib yopilgan. Tebranma stol tayanch plitasi (20)ga qotirilgan maxsus oyoqchalar (18, 21, 25) ustiga qiya qilib o‘rnatilgan.



1.2-rasm. R3-BKT-100 rusumli toshajratish mashinasi.

1 - aspiratsiya tarmog‘iga ulanuvchi quvurboshi; 2 - to‘sgich; 3 - manometr; 4 - ta’minlagich; 5 -qabul qilgich; 6 -qopqoq; 7, 9 - prujinalar; 8 - tebranma stol korpusi; 10 - vibrosozlagich; 1- yengcha; 12 - debalans yuki; 13 - titratgich vali; 14 - titratgich; 15 - taqsimlagich; 16 - taglik; 17 - saralash yuzasi; 18, 21, 25 - oyokchalar; 20 - tayanch plitasi; 22 - gardish; 23 - qopqoqli tuynuk; 24 - shturval; 26 - rama; 27 - mineral aralashmalar uchun chiqarish moslamasi; 28 - ayvoncha; 29 - vint; 30 - bo‘lgich; 31 - aspiratsiya moslamasining yenggi.

Tebranma stolning quyi qismi bir-biriga 90° burchak ostida joylashgan juft silindrsimon ko‘rinishdagi prujinalar (19) bilan tutashtirilgan. Tebranma stolning yuqori qismi oyoqcha (25)ga tayanadi. U sharnir yordamida shturvalli mexanizm (24) bilan bog‘langan bo‘lib, bu mexanizm yordamida tebranma stolning qiyalik burchagi 5 dan 100 gacha bo‘lgan oraliqda sozlanadi. Vibrostolning uzatilma-qaytma harakati titratgich (14) yordamida amalga oshiriladi. U valining ustiga debalans - yuklari (12) o‘rnatilgan elektrodvigateldan tashkil topgan. Titratgich dekaning tayanch ramasiga ulangan vibrosozlagich vali (10)ning o‘rtasiga qotirlilgan. Tebranma stolning tebranish yo‘nalishi

titratgichni vibrosozlagichga nisbatan vertikal va gorizontal tekisliklar bo‘yicha siljitim ishi to‘g‘rilanadi.

Qabul moslamasi ichida ta’minalgich (4), qabul qilgich (5) va taqsimlagich (15) joylashgan. Ta’minalgich korpusiga xomut yordamida voronka-konus mahkamlanadi. Yuqori tomondan ta’minalgich donni mashinaga tushiradigan o‘zi oqizar quvur bilan tutashtirilgan bo‘lsa, pastdan esa egiluvchan yengchaga ulangan. U yuklamaning barqarorligini va donning taqsimlagichga tushish joyidagi vakuum tizimining germetikligini ta’minlaydi. Qabul qilgichning to‘rli asosi ustida dastlabki mahsulot oqimining deka saralash yuzasi (17) bo‘ylab tekis tarqalishi va donni havo oqimi yordamida qisman puflanish holati bo‘lib o‘tadi.

Surish moslamasi tebranma stol korpusida vakuum holatini yuzaga keltiradi. U rezinali gazlamadan egiluvchan aspiratsion yeng (31) shaklida yasalgan bo‘lib bir tomondan aspiratsiya quvuri (1) va ikkinchi tomondan esa korpus (8) ga ulangandir. Quvur (1) dagi havo oqimining tezligi doirasimon tekis to‘sgich (2) yordamida tartibga solinadi. Mahsus maxovikcha yordamida to‘sgich o‘z o‘qi atrofida 90^0 ga burilishi mumkin. Quvurboshi (1) ikkita oyokcha (21) yordamida tayanch plitasi (20)ga mahkamlanadi.

Muhandislik hisob -kitoblari.

Diskli kalibrash mashinalarining ishlab chiqarish quvvati quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$G = 94,2 \cdot D_{\text{yp}} \cdot n \cdot k \cdot \frac{g}{d} \varphi \quad [\text{kg/soat}]$$

bu yerda,

D_{ur} - diskning o`rtacha diametri;

n - diskning aylanishlar soni, ayl/min;

k - saralash teshiklarining soni;

g - bitta dona mevaning og’irligi, kg;

d - mevaning o`rtacha diametri, m;

φ - kalibrash teshiklarining material bilan to`lalik koeffitsienti.

Donali mahsulotlari uchun konveyer unumдорлигii P (kg / s)

$$\Pi = 3,6Gv / \alpha ,$$

bu erda G –bir bo'lak yukning massasi, kg; a - yuklar orasidagi masofa, m

Konveyer dvigatelining quvati N (kVt)

$$N = [(k_1 \nu L_e + 0,00014 Q L_e \pm 0,0024 Q H) k_2] / \eta_{np} ,$$

bu erda: L_g - konveyerning gorizontal uzunligi, m; H - yuk ko'tarilishining balandligi, m;

η_{uz} – uzatmaning F.I.K.; k_1 – koeffitsient, lentaning kengligiga qarab; k_2 – koeffitsient, konveyer uzunligiga bog'liq.

Nazorat savollari:

1. Diskli saralash mashinasi qanday qismlardan tuzilgan?
2. Don aralashmasi guruhlarining pnevmotitrash jarayonida ajralish prinsipini izohlab bering.
3. R3-BKT-100 rusumli toshajratish mashinasi qanday qismlardan tuzilgan?
4. Diskli kalibrash mashinalarining ishlab chiqarish quvvati aniqlanadi

2-Tajriba ishi.

Oziq-ovqat xom-ashyolarning maydalash uskunalarini. Maydalangan mahsulotlarni saralash va boyitish uchun uskunalar konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning maqsadi: Oziq-ovqat xom-ashyolarning maydalash uskunalarini va maydalangan mahsulotlarni saralash hamda boyitish uchun uskunalarining konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning mazmuni:

1. Maydalash uskunalarining konstruktsiyasini, ekspluatatsiya qilish va ishslash printsiplarini o`rganish.
2. Maydalangan mahsulotlarni saralash hamda boyitish uchun uskunalarning ekspluatatsiya qilish va ishslash printsiplarini o`rganish.
3. Unumdorligi va talab qilinadigan quvvatni hisoblash.

Ish joyining jihozlari: Maydalash uskunalarini, maydalangan mahsulotlarni saralash hamda boyitish uchun uskunalar va ko`rgazmali materiallar.

Umumiy ma`lumotlar: Oziq – ovqat ishlab chiqarish korxonalarida maydalagich jihozlari keng qo`llaniladi. Jumladan, un ishlab chiqarish korxonalari, qandolat fabrikalari, yog` ekstraktsiyalash korxonalarida, spirt ishlab chiqarish korxonalari, pivo va boshqa turdagи mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarida qo`llaniladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasi mehmonxona uskunalarini, organ oshxonasi uskunalarini, muktab jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash zavodlari uskunalarini, xitoy va g'arbiy restoran uskunalarini, shifoxona jihozlari, xitoy va g'arbiy tibbiyot dorixonasi uskunalarini va boshqalarda keng qo`llaniladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasi to'g'ridan-to'g'ri dvigatel shaftasi tomonidan boshqariladigan 304 zanglamaydigan po'latdan yasalgan bo'lib, qisqa vaqt ichida xom ashyoni tezda maydalashga va maydalashga imkon beradi. Kukun chiqadigan joy oziq-ovqat gigienasi va xavfsizligini ta'minlovchi kuchli magnit moslama bilan jihozlangan.

Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasi mahsulotidan foydalanish va qo'llanilish doirasi:


1. Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasi mehmonxona jihozlari, organ oshxonasi uskunalarini, muktab uskunalarini, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash zavodlari uskunalarini, xitoy va g'arbiy restoran uskunalarini, shifoxona jihozlari, xitoy va g'arbiy tibbiyot dorixonasi uskunalarini va boshqalarda keng qo`llaniladi.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasi oziq-ovqat va dorivor moddalarni maydalash uchun ishlatiladi.

3. Oziq-ovqatlarni maydalash mashinasining maydalanish darjasи: nozik maydalagich.



**2.1-rasm. Oziq-ovqat xom-ashyolarning maydalash uskunasi
Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasining xususiyatlari:**

1. GMP standarti bo'yicha ishlab chiqarilgan va 304 zanglamaydigan po'latdan yasalgan ovqatni maydalash mashinasi.
2. Oziq-ovqatlarni maydalash mashinasi oddiy tuzilish, yuqori energiya, kam iste'mol va oson tozalashning afzalliklariga ega. Hozirgi vaqtda bu ideal maydalash uskunasi.



2.2-rasm. Xurmo silliqlash mashinasi

3. Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinalari kuchli maydalash qobiliyatiga, kam energiya sarfi va mahsulotlarning nisbatan mayda nozikligiga ega.
4. Turbina ishi natijasida hosil bo'lgan katta maydalash maydoni va yuqori quvvatli shamol bosimi nafaqat ishlab chiqarish quvvatini yaxshilaydi, haddan tashqari ezish hodisasini kamaytiradi, balki maydalash jarayonida ekranning cho'kishi va bloklanishidan ham samarali saqlaydi. Yuqori kuchli shamol bosimi, shuningdek, maydalash kamerasida hosil bo'ladigan issiqlikni maksimal darajada oshirishi mumkin.
5. Elyaf materialining maydalash qobiliyati qirqish kuchi tufayli umumiy uskunalarga qaraganda yuqori.

6. Ekranni o'rnatish qulay va joylashishni aniqlash ishonchli. Kiritish turi qabul qilingan. Xizmat muddati qo'ng'iroq ekraniga qaraganda ancha yuqori.
7. Mashinaning tortishish markazini kamaytirish va uskunaning shovqinini samarali ravishda kamaytirish uchun o'rnatilgan motorni loyihalash.

Oziq-ovqat mahsulotlarini maydalash mashinasining texnik parametrlari:

| Model | 20Model | 30Model | 40Model |
|----------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| imkoniyatlar | 60-150 kg / soat | 100-300 kg / soat | 160-800 kg / soat |
| Mesh hajmi | 6 mm | 10 mm | 12 mm |
| Noziklikni maydalash | 60-120mesh | 60-120mesh | 60-120mesh |
| vazn | 250 kg | 320 kg | 550 kg |
| Qaytish tezligi | 4500r / min | 3800r / min | 3400r / min |
| kuch | 4kv | 5.5 kVt | 11kv |
| Kuchlanish | 220V | 220V | 220V |
| o'lchov | 550 * 600 * 1250 mm | 600 * 700 * 1450 mm | 800 * 900 * 1550 mm |

Maydalagich jihozlarining asosiy ishchi organlari quyidagilardan iborat bo`ladi: mahsulot qabul qilish, yo`naltirgich, maydalagichlar (valik, bolg`a va boshqa turlari) va yuritmadan iborat.

Bolg`ali maydalagichning unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{D^2 L n^2}{3,6 (i - 1)} k_1 \text{ кг/соат}$$

bu erda D – rotoring diametri, mm.

Agar unmudorlik berilgan bo`lsa, bolg`ali maydalagichlar uchun rotor diametri quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$D = \sqrt{\frac{(i-1)Q \cdot 3,6}{k \cdot k_1 n^2}} \text{ m}$$

bu erda L – rotor uzunligi, m;

n - rotor valining aylanishlar soni, ayl/min;

i - mahsulotning maydalash darajasi;

$$i = \frac{d_{\text{бом}}}{d_{\text{ox}}} = 150 \div 400$$

bu erda $d_{\text{бом}}$ – mahsulot bo`lagining maydalanmasdan oldingi o`lchami, mm;

d_{ox} – mahsulot bo`lagining maydalangandan keyingi o`lchami, mm;

k_1 - tajriba koeffitsienti, bu ko`rsatkich maydalagichning konstruktsiyasiga va maydalanadigan mahsulotning qalinligiga bog`liq (oziq – ovqat mahsulotlari uchun 1 – 4 gacha qabul qilingan);

k - bolg`ali maydalagichdagi rotor uzunligining diametriga nisbati:

$$k = L/D = 0,32 \div 0,64$$

Bolg`ali maydalagichdagi elektrodvigatel quvvati quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$N = (N_1 + N_2) \frac{k_2}{\eta}$$

bu erda N_1 – bolg`ali maydalagich yuritmasidagi elektrodvigatel quvvati, kWt:

$$N_1 = 1,34 D^2 L \omega$$

bu erda ω – bolg`aning burchak tezligi, rad/s;

N_2 - shnekli dozatorning uzatmasidagi elektrodvigatel quvvati, kWt:

$$N_2 = (Q g L_1 W) / 100$$

bu erda Q – shnekli dozatorning unumdarligi, kg/s;

L_1 - mahsulotning yuklash qismidan maydalash kamerasigacha bosib o`tgan yo`li, m; (mahsulotning harakati davomida);

W - jihoz devori bo`ylab harakat qiladigan mahsulotning qarshilik koeffitsienti (1 – 4 oralig`ida qabul qilinadi).

Ikki valikli maydalagichning unumdarligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = 235LDd_{ox}n\mu\rho \quad \text{кг/мин}$$

bu erda L – valikning ishchi uzunligi, м;

D - valikning diametri, м;

d_{ox} - mahsulot bo`lagining maydalangandan keyingi diametri, м;

n - valikning aylanishlar soni, аyl/min;

μ - mahsulotning maydalanish koeffitsienti (maydalagichdan chiqqandan keyingi) ($\mu = 0,2 - 0,3$);

ρ - mahsulotning zichligi, kg/m³.

Besh valikli maydalagichning unumdarligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = L\delta\vartheta\rho\varphi$$

bu erda δ – oxirgi valikdagи mahsulot qalinligi (oxirgi valiklar orasidagi masofaga teng), м;

φ - valiklar orasidagi qalinlikning to`lish koeffitsienti ($\varphi = 0,8 - 0,9$);

ϑ - valikning aylanma tezligi, м/с

$$\vartheta = \frac{\pi D n}{60}$$

Valikli maydalagichdagi elektrosvigatel quvvati quyidagi ifoda orqali hichoblanadi:

$$N = 17LDn \left[\frac{d_{бояш}}{2} + \frac{D^2}{24000} \right]$$

bu erda $d_{бояш}$ – mahsulot bo`lagining maydalanmasdan oldingi o`lchami, м.

Melanjerning unumdarligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{m}{\tau_{юк} + \tau_{иш} + \tau_{бояш}}$$

bu erda m – yuklangan mahsulot og`irligi, kg;

$\tau_{юк}$ - ishlov beriladigan mahsulotni yuklash uchun ketgan vaqt, с;

$\tau_{бояш}$ - ishlov berilgan mahsulotni bo`schatish ketgan vaqt, с;

$\tau_{иш}$ - mahsulotni ishlov berish vaqt, с.

Melanjerdagi elektrosvigatel quvvati quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$N = \frac{(N_1 + N_2 + N_3)k}{\eta}$$

$$N_1 = \frac{G_k f_k Z \omega R_0}{\eta} \quad \text{kBT}$$

bu erda G_k – valik og`irligi, N;

f_k - mahsulotni maydalashdagi valikning ishqalangish – tebranish koeffitsienti;

Z - valiklar soni, dona;

ω - aylanma burchak tezligi, rad/s;

R_0 - aylanma radius, m;

D - valik diametri, m.

$$N_2 = \frac{G_k f_c \omega b z}{4 \cdot 1000}$$


$$N_3 = \frac{(Z G_k G_r G_B) f_{иш} d_{ыр} \omega}{2 \cdot 1000}$$

bu erda G_r – qozon va qozon ichidagi maydalananadigan mahsulot og`irligi, N;

G_B - val bilan birgalikda tishli uzatmaning og`irligi, N;

$f_{иш}$ - ishqalanish koeffitsienti;

$d_{ыр}$ - aylana bo`ylab ishqalanishning o`rtacha diametri, m.



2.3 – rasm. Bolg’ali maydalagich

Nazorat uchun savollar

1. Maydalagich jihozlari ish unumdorligining geometrik o`lchamlariga bog`liqligini izohlab bering.
2. Jihozlarning kinematik sxemasini chizib, kinematik hisobini izohlang.

3-Tajriba ish

Suyuq bir xil bo’limgan oziq-ovqat muhitini ajratish uchun uzkunalar konstrukziyasi va ishlashini o’rganish.

Ishning maqsadi: Separatorning tuzilishi, ishlashi va sut yog‘liligini normallashtirishni o‘rganish.

Ishning mazmuni: 1. Sut separatori vazifasi, tuzilishi va ish jarayonini o‘rganish.

2. Separator qaymoq ajratgich ish unumini aniqlash.

3. Sut yog‘liligin normallashtirishni o‘rganish.

4. Dvigatelni ishga tushirish quvvatini aniqlash


Ish joyining jihozlari: Sut separatori,sut tozalgich, qaymoq ajratish va normallashtirish barabanlari, ko‘rgazmali materiallar.

1. Sut separatori vazifasi, tuzilishi va ish jarayoni

Sut yog‘ va sut plazmasi aralashmasidan iborat bo‘lib, unda yog‘ zichligi $0,874\ldots0,901 \text{ g/sm}^3$ oralig‘ida o‘zgarib turadi. Separatsiyalash aralashmadagi zichliklar farqiga asoslanadi va uni bajarishda ikki usul qo‘llanilishi mumkin: tindirish-bunda zichligi kichik bo‘lgan yog‘ plazma sathiga qalqib chiqadi; mexanik usul-bunda mexanik ta’sir natijasida sut qaymoq va ko‘k suvga ajratiladi.

Tindirish jarayoni arning tortish kuchi maydonida, separatsiyalash esa markazga intilma tezlanish maydonida kechadi.

Sut separatorlari vazifasiga ko‘ra sut tozalagich, qaymoq ajratgich, (3,1- rasm), normallagich va universal separatorlarga bo‘linadi.



3,1-rasm. Separatorlar:

a)-sut tozalagich; 1-taglik; 2-rezina halqa; 3-tarelka ushlagich; 4-ajratgich tarelkalar paketi; 5-korpus; 6-sut chiqish kanali; 7-gayka; 8-

barabanli iflos yig‘ish kamerasi; b)-qaymoq ajratgich; 1-taglik; 2-tarelkalar paketi; 3-tarelka ushlagich; 4-po ‘kakli kamera quvuri; 5-gayka; 6-yog ‘lilikni rostlash vinti; 7- yuqori ajratgich tarelka; 8-rezina mahkamlash halqasi; 9-korpus.

Konstruktiv xususiyatlari va sut bilan kontakt darajasiga ko‘ra separatorlar quyidagicha bo‘linadi: ochiq – sutni yuklash, qaymoq va yog‘siz sutni ochiq usulda olish; yarim yopiq – sutni bosimsiz ochiq yoki yopiq usulda yuklash, mahsulotni bosim ostida olish (bosim separatorlarida hosil qilinadi). Separatsiyalash jarayonida sut baraban ichida havo bilan kontaktda bo‘ladi: yopiq

– havodan to‘silgan holda yuklash, baraban ichida ishlov berish va olish. Separatorlarga bosim ostida yuklanadi, bosim ostida olinadi. Bosim nasos yordamida yopiq quvurda hosil qilinadi.

Yuritmasining turiga qarab separatorlar quyidagilarga bo‘linadi: dastakli, elektrlashtirilgan, kombinatsiyalashgan (dastakli, elektrlashtirilgan). Qishloq xo‘jaligida ochiq va yarim yopiq separatorlar qo‘llaniladi.

SOM-3-1000M ochiq tipdagi separator. Sutning harorati $25\text{-}40^0\text{S}$ ($298\text{-}313^0\text{K}$), achimliligi 22^0T yuqori bo‘lmagan holda qaymoq va yog‘i (qaymog‘i) olingan sutga ajratiladi. Ish unumi 1000 l/soat, qaymoqning yog‘liligi 1,0 dan 4,5% gacha sozlanadi. Aylanish tezligi $-137,5 \text{ s}^{-1}$. Tarelkalar soni -65. Tarelkalar oralig‘i - 0,44 mm, baraban burchak tezligi-850 rad/s, baraban og‘irligi - 16 kg. Elektrodvigatel quvvati-1 kVt.

Sut idishi – sut qabul qilgichdan, poplavokli kameradan, poplavokdan, qaymoq va yog‘I olingan sut yig‘ish idishlaridan tuzilgan.

Baraban quyidagi qismlardan tuzilgan: quvur o‘rnatilgan baraban taglikdan, tarelka ushlagichlardan, tarelkalardan, ajratgich tarelkalardan (sozlagich vinti bilan), baraban qoplamasidan, qisish gaykasidan.

Harakatga keltiruvchi mexanizm - valikdan, bronzali shesternyadan, veretenodan tuzilgan.

Korpus – korpusda harakatga keltiruvchi mexanizm joylashgan bo‘lib

pastki qismidan fundamentga qotirlgan, yuqori qismida baraban joylashgan.

Separatorning ish jarayoni

Separator ishlayotganda, sut, qabul qiluvchi idishdan doimiy bosimda markaziy quvurga tushadi, so‘ng kanal va tarelkalar o‘rnatilgan o‘zak teshiklardan sut tarelkalar paketidagi (yig‘imidagi) uch vertikal kanallarga, aylanayotgan baraban tarelkalari orasiga taqsimlanadi, tarelkalar oralig‘idagi sut bo‘laklarga ajraladi. Sutning og‘ir qismi bo‘lgan plazma, chetga baraban qoplamasi devorlari tomon harakatlanadi.

Sutdagi yog‘ shariklari markazga intilish, tezlanish ta’sirida aylanish o‘qi, markazga harakatlanadi va suzib chiqadi.

Shunday qilib bosim ta’sirida baraban tarelkalari oraliqlariga kelayotgan sut ikki oqimga (potokga) ajraladi: 1-baraban o‘qiga qarab yo‘nalgan qaymoq oqimi; 2-baraban qoplamasi devorlari tomon harakatdagi qaymog‘i olingan sut (plazma) oqimi. Qaymoqlar tarelka ushlagichga siqiladi va yuqoriga ko‘tarilib borib, sozlovchi vint teshigidan chiqadi.

Rostlovchi vintni buraganda oqib chiqayotgan qaymoqning bosimi va oqib chiqishi kamayadi, qaymoq esa engilroq bo‘ladi. Qaymog‘i olingan sut ajratish tarelkalari va baraban qoplamasi oralig‘idan o‘tib barabandan chiqarish kanali orqali chiqariladi.

Separator sut tozalagich barabanida zichligi sut zichligidan katta bo‘lgan aralashmalar markazdan qochma tozalash yo‘li bilan bajariladi. Bu holda tarelkalarda teshiklar bo‘lmaydi, diametrlari esa qaymoq ajratgich tarelkalardan kichik bo‘ladi. Har bir tarelkaga 4 tadan planka payvandlangan.

Sut paplavokli kameradan baraban negizidagi sut trubkasi orqali va tarelka yig‘ich kanallari orqali iflosliklarni yig‘ish kamerasiga o‘tadi. Iflosliklarni yig‘ish kamerasida tozalanish jarayoni boshlanadi, u tarelkalar oralig‘ida tamomlanadi. Tozalangan sut tarelka yig‘uvchi tashqi kanallar orqali ko‘tariladi va qaymoq kanali orqali barabandan chiqadi.

Separator texnologik rejimlari

Qaymoq miqdori va yog‘ililagini sozlash sozlovchi vintini burash yordamida amalga oshiriladi. Vintni o‘ng tomonga buraganda qaymoq yog‘liligi ortadi va miqdori kamayadi, chap tomonga buraganda yog‘liligi va miqdori ko‘payadi. Separatorni zavoddan chiqarishda sozlovchi vintni 12% qaymoq olishga qo‘yadi. Separatorni o‘rganganda qo‘yidagilarga e’tibor berish kerak: baraban aylanishining kamayishi bilan sутдан yog‘ ajratish yomonlashadi; sутдан yaxshi yog‘ ajratish 25-40⁰S haroratda va achimliligi 22% yuqori bo‘lмагanda erishiladi; sut iflosligi ko‘tarilishi bilan tarelkalar orasidagi bo‘shliq to‘ladi va yog‘ning miqdori yog‘I олинан sutda ko‘payadi; separator to‘xtamasdan 2 soatdan ko‘p ishlaganda tarelkalar komplekti orasidagi bo‘shliq tiqilib qoladi va yog‘ ajratish yomonlashadi; tarelka ushlagich aylana qismi baraban asosidagi quyilish joyiga mahkam o‘tirmasa, sut iflosliklarni yig‘ish bo‘shlig‘iga o‘tadi va yog‘ ajratish jarayonida qatnashmaydi.

Baraban aylanishining bir tekisligining buzilish sabablari:

- A) mahkamlash gaykasi qopqoq va barabandagi belgigacha qotirlilmagan bo‘lsa;
- B) tarelkalar barabanga tartib nomerlari bilan joylashtirilmasa;
- V) boshqa barabanniki qo‘yilsa;
- G) veretenobo‘g‘iztayanchto‘g‘riyig‘ilmasa;
- D) separator bir sathda o‘rnatilmagan bo‘lsa;

E) harakatlantiruvchi mexanizm sharikopodshibniklari yeyilgan bo‘lsa;

Separatsiya qilish tugagandan so‘ng qaymoq qoldiqlarini chiqarib olish uchun, separatorni to‘xtamasdan barabandan ma’lum miqdorda yog‘iolingan sutni o‘tkazish kerak, undan keyin barabanni issiq suv ($40-60^{\circ}\text{S}$) bilan 15 minut davomida, kaustik soda bilan ($40-60^{\circ}\text{S}$) 30 minut davomida va suv ($20-25^{\circ}\text{S}$) bilan 20 minut davomida yuvib tashlash kerak.

Separator qaymoq ajratgich ish unumini aniqlash

Separator qaymoq ajratgich ish unumini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_{qay} = 48 \cdot 10^6 \cdot \varphi \cdot n^2 \cdot z \cdot \operatorname{tg}\alpha (R_{kat}^3 - R_{kich}^3) t_s d_{yo}^2, \text{ m}^3/\text{s}, \quad (1)$$

bu yerda: φ - separator texnologik F.I.K. (baraban ishchi hajmidan foydalanishni hisobga oladi), $\varphi=0,5 - 0,8$;

n – baraban aylanish tezligi, s^{-1} ;

z – barabanning tarelkalari soni, dona;


α - tarelkaning qiyalik burchagi, grad;

R_{kat}, R_{kich} – katta va kichik radiuslari, m;

t_s - sut harorati ($t_s \square 35-65^{\circ}\text{S}$);

d_{yo} - tozalangan sut tarkibidagi yirik yog‘ sharigi diametri,mkm ($d_{yo} \square 1-35$ mkm, sigir zoti va ozuqaga bog‘lik).

Birinchi formuladan va ikkinchi jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib o‘qituvchi topshirig‘I asosida talabalar har xil rusumdagи separatorlarning texnologik F.I.K. aniqlashlari kerak. Shuningdek d_{yo} miqdorini formulaga metrda qo‘yish kerak, ya’ni $2 \cdot 10^{-6}$; $1,5 \cdot 10^{-6}$ va boshqalar.




3,2-rasm. Separator barabani o‘lcamlarini olishga oid cxema.

1. Sutning yog‘lilagini normallashtirish

Sutning tarkibida yog‘ miqdorini me’yordan ko‘p (yoki kam), bo‘lsa unda normallashtiriladi. Ichimlik sut yog‘liligi bizda 2,5% qabul qilingan. Sutni normallashtirishda yog‘liligi me’yordan kam bo‘lgan sut aralashtiriladi, yog‘I olingan sut qo‘shib aralashtiriladi yoki separator normallagichda separatsiya qilish yo‘li bilan normallashtiriladi.

Sutni normallashtirishning hamma holatlari uchun kvadrat qoidasidan foydalanib hisoblasa bo‘ladi. Misol uchun yog‘liligi $Y_{0x} = 3,6\%$ sutga yog‘liligi $Y_{0s} = 0,05$ yog‘I olingan sut qo‘sish miqdorini aniqlash kerak. Bu misolni yechish uchun kvadrat (3,3-rasm) chizilib, uning chap burchaklariga qo‘shilayotgan mahsulotlar yog‘liligi (o‘qituvchi topshirig‘i bo‘yicha sut va yog‘i olingan sut) belgilanadi. Markazda dioganallar kesishish joyida olish kerak bo‘lgan sut yog‘liligi ko‘rsatiladi, o‘ng burchaklarda esa diogonal bo‘yicha kattasidan kichigining farqlari ko‘rsatiladi.



3,3-rasm. Kvadrat usulidan foydalanim sutni normallashtishni hisoblash sxemasi

Undan so'ng proporsiya tuzib aralashmada komponentlar miqdori (%) topiladi.

$$\begin{array}{rcl} 3,55 & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & 100 \\ 2,45 & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & S_{o.k} \end{array} \quad \underline{S_{o.k.} = 2,45 * 100 / 3,55 = 69\%}$$

ko'rinish turibdiki olish kerak bo'lgan $S_{o.k}$ aralashmasida yog'liligi $Y_{o.s}=3,6\%$ bo'lganda sut miqdori 69%, yog'I olingan sut yog'liligi $Y_{o.s}=0,05\%$ bo'lgan sut $S_{y.o.o.}$ miqdori 31% bo'lish kerak.

Kvadrat usulidan va 8 jadvaldan foydalanim o'qituvchi topshirig'I bo'yicha 10 ta variantdan biriga hisoblashlar bajaring.

3,1 – jadval

Sutni normallashtirishni bajarish uchun topshiriq variantlari

| Ko'rsatkichlar | Belgi-lanishi | Variantlar | | | | | | | | | |
|---|---------------|------------|------|------|------|------|------|------|------|----------|------|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
| Yog'I olingan sut yog'liligi | Syo.o. | 0,05 | 0,05 | 0,06 | 0,07 | 0,04 | 0,03 | 0,05 | 0,06 | 0,0 7 | 0,04 |
| Normallashtiris h kerak bo'lgan sut yog'liligi % | So.k. | 3,6 | 3,6 | 3,5 | 3,7 | 3,4 | 3,8 | 3,6 | 3,6 | 3,6 | 3,4 |

| | | | | | | | | | | | |
|------------------------------------|-------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| Normallashgan sut yog‘liligi | S_n | 3,2 | 2,5 | 2,8 | 2,9 | 3,0 | 3,2 | 2,5 | 2,5 | 3,2 | 3,0 |
|------------------------------------|-------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|

Texnologik mashinalar yuritmasi uchun elektrodvigateli ularning ishchi yurish quvvati bo‘yicha aniqlaydi. Tahminan 15% quvvat ularni ishga tushirish davri uchun qo‘shiladi. Chunki sentrifugalarni foydalanish quvvatidan emas ishga tushirish quvvati bo‘yicha hisoblaydi. Shu bilan birga mashinani to‘liq ishga tushirishga qadar kerak bo‘ladigan vaqt hisobga olinadi. Ish unumi 1000...2000 l/soat bo‘lgan separator detallari mustahkamligi sharoitidan kelib chiqib uning to‘liq ishga tushirish davomiyligi 1...3 min oralig‘ida qabul qilinadi.

O‘rganganlar asosida bajarish kerak:

1. SOM-3-1000 separator – qaymoq ajratgichning vazifasi, tuzilishi va asosiy texnik ko‘rsatkichlarini yozib oling.
2. Separator –qaymoq ajratgich barabani texnologik sxemasini chizi boling.
3. Sut separatori hisoblashlarini bajaring.

Nazorat savollari:

4. SOM-3-1000 separatori qanday qismlardan tuzilgan?
5. Separator barabani qanday tuzilgan?
6. Separator qaysi texnologik sxema bo‘yicha ishlaydi?
7. Baraban aylanishining bir tekis bo‘lmasligi sababi nimalardan iborat?
8. Sutni normallashtirishni hisoblashda kvadrat qoyidasining mohiyati?
9. Separator ish unumi qanday aniqlanadi?

4-Tajriba ishi.

Oziq-ovqat muhitini aralashtirish uskunalarini konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning maqsadi: Aralashtirgichlarning tuzilishi va ishlashini o'rganish.

Ishning mazmuni:

1. Aralashtirgichlarning vazifasi, tuzilishi va ish jarayonini o'rganish.
2. Aralashtirgichlarning ish unumini aniqlash.
3. Dvigatelni ishga tushirish quvvatini aniqlash

Ish joyining jihozlari: Aralashtirgichlar va ko'rgazmali materiallar.

Umumiylar. Oziq – ovqat ishlab chiqarish korxonalarida aralashtirish va xamir qorish jihozlari keng qo'llaniladi. Jumladan non, qandolat va makaron ishlab chiqarish korxonalarida, umumiylar ovqatlanish korxonalarida, kolbasa tayyorlash tsekslarida, sut kombinatlarida.

Aralashtirish va xamir qorish jihozlari quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: ishchi kamerasi, aralashtirish yoki qorish organi, ishchi organini harakatga keltiruvchi val, elektrodvigatel va uzatmalar.

Ishchi kameraning tuzilishi quyidagi shakllardan tashkil topgan bo'ladi: tsilindrsimon, yarimtsilindrsimon, barabansimon, yarim sferasimon va h.k.

Jihozlarning asosiy ishchi organi quyidagilardan iborat: shnek, parrak, lopatkachalar va h.k.

Bu jihozlarni uchta sinfga bo'lish mumkin:

- a) sochiluvchi mahsulotlarni aralashtirish uchun;
- b) qovushqoq mahsulotlarni aralashtirish uchun;
- v) suyuq mahsulotlarni aralashtirish uchun.

Aralashtitirish jihozlari. Farsh aralashtirgichlar. Konserva mahsulotlari ishlab chiliarishda go'shtli va sabzavotli farsh tashkil etuvchilarini aralashtirish uchun farsh aralashtirgichlar ishlataladi. Sanoatda Й5–ФМ2–М–150 va Й5–ФМ2–

M-340 rusumli farsh aralashtirgichlar ko`p ishlataladi, ularning texnik xarakteristikasi 4.1.-jadvalda keltirilgan.

4.1.-jadval. Farsh aralashtirgichlar texnik xarakteristikasi


| Ko`rsatgichlar | <i>L5-ФМ2-М-</i> 150 | <i>L5-ФМ2-М-</i> 340 |
|----------------------------|--------------------------------|--------------------------------|
| Tog'ora hajmi, m^3 | 0,15 | 0,34 |
| To`lish koeffitsienti | 0,75 | 0,75 |
| Yuritma elektrodvigatel | 3 | 5,5 |
| quvvati, kVt | 0,27 | 1,1 |
| vintniki | 1630×730×980 | 1980×910×1235 |
| | | |
| tog'orani to`nkaruvchiniki | | |
| Gabarit o`lchamlari, mm | 466 | 980 |
| Massasi, kg | | |

Farsh aralashtirgich stanimadan, tog'oradan, aralashtiruvchi vintlardan, qopqog'dan, aralashtirish vintlarining va tog'orani to`nkaruvchining yuritmalaridan iborat. Stanina profilli po`latdan payvandlab ishlangan, tog'ora va qopqoq zanglamaydigan po`latdan tayyorlangan. Aralashtiruvchi vint yuritmasiga elektrodvigatel, ponasimon tpsmali va tishli uzatma kiradi. Tog'orani to`nkaruvchi yuritmasiga elektrodvigatel, chervyakli reduktor va chervyachli uzatma kiradi. Qopqopni 0,25 m ko`targanda aralashtiruvchi vintlar yuritmasi avtomatik tarzda ishdan to`xtalishi uchun qurilma mavjud.

Farsh aralashtirgich montajga yig'ilgan holda keladi. Oldindan qurilgan fundamentga takelaj mexanizmlari bilan o`tqaziladi va obtarozi yordamida gorizontallik holatini tekshiriladi. Bunda gorizontallikdan ruxsat etilgan og'ish qiymati 1 m uzunlikda 0,1 mm ni tashkil qilishi kerak. Fundamentga

mashina M18 fundament boltlari bilan mahkamlanadi. Fundamentda bo`yi bo`yicha suv oqib tushishi uchun kanalcha o`yilgan bo`lishi kerak.

Mashinani sinovdan o`tkazishdan oldin yuritma tasmalari tortilganligi, barcha moylanadigan joylari moylash kartasi bo`yicha moylanganligi, aralashtiruvchi vintlarning ikki yo`nalishda (soat strelkasi bo`yicha va unga qarshi) aylanishi, tog'oraning to`nkarishi, qopqog'ni ochganda avtomatik qurilmaning ishlashi tekshiriladi.



4.1.– rasm. Farsh aralashtirgich J5–ΦM2–M

1–stanina; 2–ralashtirgich yuritmasi; 3–tog'ora; 4–ralashtirish vintlari; 5–qopqoq; 6–tog'orani to`nkarish yuritmasi; 7–to`nkarishni chegaralovchi; 8–reduktor; 9–elektrodvigatel; 10–elektrqurilma; 11–elektrodvigatel.

Mashinani salt holatda sinovdan 2 soat mobaynida o`tkaziladi, bunda vintlarning aylanishi, podshipniklar holati kuzatiladi. Vintlar erkin aylanishi va ular uchlari va tog'ora devori orasidagi oraliq 3 mm dan oshmasligi kerak. Bu oraliqni vintlar yuritmasidan turib valda o`rnatilgan rostlovchi vintlar yordamida rostlash mumkin. Podshipniklar isish darajasi 50°C dan oshmasligi lozim.

Mashinani yuklama ostida ishlatish paytida asosiy e`tibor uzatmalarning (tasmali, tishli, chervyakli uzatmalarning) holatiga, moylash rejimiga rioya

qilishga, podshipniklarning isib ketmasligiga qaratiladi. Agar sinov paytida farshga moylash moddasi aralashsa, podshipnik tsapfalarida va karterda salnikni zichlagichlarni qattiqroq tortish kerak. Mashinani yuvishda elektrodvigatellarda suv tushmasligi kerak.

Asosiy yeyiladigan detallari: [aralashtirish vintlari](#), ularni ushlab turadigan valning podshipniklarda tayanib turadigan bo`yinchasi va vintlar mahkamlangan joyi. Ularni ta`mirlash detallarni qayta tiklash usullari bo`yicha olib boriladi.

Farsh aralashtirgichlarda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish yo`llari

4.2.-jadval. Farsh aralashtirgichlarda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish yo`llari

*Nosozlik va buzilish Keltirib chiqaruvchi Bartaraf etish yo`li
sabab*

| | | | |
|-------------------------|---------------------|------------|-----------------------|
| Asosiy | Motor korpusida suv | Motorni | ochib, |
| elektrodvigatel qattiq | kirib, obmotkasi | obmotkani | quritish |
| isiyapti | namlangan | Podshipnik | korpusini |
| Aralashtirgich | Vint | vali | ochib, nosozlikni |
| ishlayotganida | podshipniklari | nosoz | bartaraf etish |
| toqorada shovqin | | | Podshipnikni |
| eshitilyapti | Podshipnik | ta`mirlash | yoki |
| Toqora | vkladishlari | ishdan | almashtirish kerak, |
| to`nkarilgandan | chiqqan | va | vint vintning toqora |
| keyin farsh qoraroq | toqora | devoriga | devoriga tegishini |
| rangda bo`lib, tegyapti | | | bartaraf qilish kerak |
| qisman ifloslangan | Toqora | yuzasi | |
| | eyilgan | yoki | |
| | yuzasida zang | paydo | Zanglangan joylar |

bo`lgan. Bunday tozalanadi,
 holda mashina ishi toqoraning eyilgan
 butunlay to`xtatiladi. joylari oziq ovqat
 sanoatida
 ishlatiladigan toza
 rux bilan qoplanadi.

Davriy ishlaydigan xamir qorish mashinasi. Davriy ishlaydigan *TMM-1M* rusumidagi xamir qorish mashinasi 39 % dan kam bo`limgan namligi bo`lgan xamir va oparani 140 l sig'imi qozonda qorish uchun ishlatiladi. Bu mashina kichik quvvatlari non va konditer mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladi. Mashina poydevorga o`rnatilgan plita, stanina, qoruvchi organ, qo`zg'aluvchan qozon- *D-140* va yuritmadan iborat. Qorish organining yurgizuvchi mexanizmi chervyakli g'ildirak va sharnirli vilkadan iborat. Chervyakli g'ildirak aylanganda qoruvchi organ uchi konus shaklida, 2,09 rad burchak ostida qayrilgan richag murakkab shaklda aylanadi. Qo`zg'aluvchan qozon pastki qismida chervyakli shesternysi bor. Bu shesternya chervyak bilan ilashmaga kirib, qozon majburiy aylantiriladi. Chervyak valiga o`rnatilgan krivoship, o'q va tyaga yordamida qozon qalpog'i ko'tarilib tushiriladi. Mashina yuritmasi elektrodvigatel va ponasimon tasmali uzatmadan iborat. Qalpoq tushirilganda friktsion yarimmufta elektrodvigateldan aylanayotgan shkiv diskining ichki sirtiga yopishadi va qorish organiga harakatni etkazadi. Qorish tugagandan keyin qalpoq ko'tariladi va qozon hamda qorish organi harakati to`xtatiladi.

4.3.- jadval. *TMM-1M* rusumidagi xamir qorish mashinasi texnik xarakteristikasi


| | |
|---|-------|
| <i>Ish unumdorligi, t/sut.....</i> | 7 |
| <i>Xamir uchun qozon sig'imi, m³</i> | 0,140 |
| <i>Kuraglar aylanish chastotasi, ayl/min</i> | 24,9 |
| <i>Elektrodvigatel quvvati, kWt</i> | 2,2 |

Gabarit o'lchamlar, mm 1325 × 795 × 1110

Massa, kg 293

Xamir qorish mashinasini montajga yig'ilgan holda mexanik uslubdaolib kelinadi va oldindan tayyorlab qo'yilgan tayanchga o'rnatalidi.

Gorizontallik va vertikallik holati obtarozi va shoqul bilan tekshiriladi. Gorizontallikdan uzunlikka og'ish 0,05 mm, balandlik belgisi bo'yicha ± 5 mm, yuqorida qaraganda o'qlar bo'yicha og'ish ± 10 mmdan ko'p bo'lmasligi kerak. Gorizontallik holati fundament plita tagiga po'lat tinqin qo'yish bilan rostlanadi. Mashina holati yuqoridaq talablarga javob bergandan keyin tayanchga to'rt dona M20 anker boltlari bilan mahkamlanadi. Ishlatishdan oldin himoya moylash qatlami olinadi, ponasimon tasmalar tarangligi tekshiriladi, qorish organi aylanish mexanizmi korobkasiga mashina moyi quyiladi, boshqa ishqalanish yuzalari moylanadi, tasmali uzatma uchun himoya to'sig'i qo'yiladi. Qozonni fundament plitasiga ehtiyyotlik bilan zarbasiz etaklab qo'yiladi. Qozonning plitaga to'g'ri o'tirishi va chervyakning qozon chervyakli shesternyasiga ilashishi tekshiriladi. Qorish organi kuragi va qozonning ichki yuzasi orasidagi oraliq 2-3 mm ni tashkil qilishi kerak. Qorish organini qo'l bilan aylantirish uchun elektrodvigatel vali ikkinchi uchida maxovik atilgan.



4.2.-rasm. TMM-1M rusumidagi xamir qorish mashinasi

1- to`siq-qalpoq; 2- richag; 3- sharnir vilkasi; 4- krivoship; 5- yulduzcha stupitsasi; 6- maxovik; 7- stanina; 8- elektrodvigatel; 9- zanjirli uzatma; 10- yulduzcha; 11- bosh reduktor; 12- biriktiruvchi valik; 13- qoruvchi organ; 14- maydoncha-asos; 15- chervyakli reduktor; 16- disk; 17- yo`naltiruvchi kurak; 18- uch g`ildirakli karetka; 19- sig'im; 20- shlitsali vtulka; 21- flanets; 22- kvadrat xvostovik; 23- karetka stupitsasi.

Mashina salt holatda 2 soat mobaynida ishlatadiladi. Sinov paytida mashina hamma mexanizmlari silliq, zarbsiz va isimasdan ishlashi kerak.

Podshipniklarning isib ketish harorati 60⁰C dan oshmasligi kerak.

Xamir qorish mashinasini ta`mirlashda yuritma uzatmalari, qoruvchi **organ richagi va podshipniki**, krivoship, fundament plitadagi chervyakli shesternya holati ko`riladi. Xamir qorish mashinasida uchraydigan nosozliklar va ularni yo`qotish yo`llari 4.3.3.- jadvalda ko`rsatilgan.

4.4.- jadval. TMM-1M xamir qorish mashinasida uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish yo`llari

| | | | |
|-----------------|--------------------|--------------------|-----------------------------|
| <i>Nosozlik</i> | <i>va Keltirib</i> | <i>chiqaruvchi</i> | <i>Bartaraf etish yo`li</i> |
| <i>buzilish</i> | <i>sabab</i> | | |

| | | | |
|----------------------------|--|-------------------------------|--------------------------------------|
| Mashina ishlayotganida | Chervyakli tishlar | shesternya eyilgan chervyakli | Ishdan chiqqan shester- |
| qozon to`xtab- | Qorish organi | qozon nyani | yangisiga tegyapti almashtirish |
| to`xtab, zarba bilan | tagligiga | | |
| aylanadi. | Qozon | devori Mashinani | to`xtatib, |
| Mashina ishlayotganida | deformatsiyaga (ovallik) uchragan | o`rnatuvchi | vint va richeg sharniridagi |
| qozon ichida zarba bo`ladi | Qoruvchi yuritmasidagi chervyakli | organ gaykani | susaytirib, qoruvchi organ valini |
| Mashina ishlayotganida | reduktor | karterida 3-5 mm | ko`tarib, moyning va qozondagi gayka |
| | | | va vintni |

qoruvchi organ va chervyak va chervyakli mahkamlash kerak qozon begona g'altak tishlarida Qozon ovalligini tovush bilan moylash materialining to`g'rilash kerak harakatlanyapti yo`qligi yoki kamligi Chervyakli reduktor Qorish organining karteriga ko`rsat-podshipnigi yoki qozon gichigacha moy tsapfasidagi podshipnik quyish, chervyak va ishdan chiqqan g'altak tishlariga solidol surtish kerak.

Podshipniklarni yangisiga almashtiriladi.

Uzluksiz ishlaydigan xamir qorish mashinasi. I8-XTA-6 rusumli xamir qorish mashinasi xamir va xom xamirni (oparani) uzluksiz qorib berish uchun mo`ljallangan.

Bu mashina stanina, qorish sig'imlari, aralashtiruvchili ta'minlovchi, barabanli un o'lchab beruvchidan iborat. Qoruvchi sig'im ustidan ikkita organik shishadan yasalgan qopqop bilan yopilgan. Qoruvchi sig'im shakli tog'oraga o`xshagan bo`lib, zanglamaydigan po`latdan yasalgan. Sig'im ichida sig'imdan chiqib turgan tebranish podshipniklariga tayanib turgan 2 ta parallel vallar joylashgan. Bu vallarga echib olinadigan qorish kuraklari o`rnatilgan. Bu vallar elektrodvigatel, tsilindrik reduktor va tsilindrik tishli uzatmadan tarkib topgan yuritma orqali harakatlantiriladi.

4.5.- jadval. I8-XTA-6 rusumidagi xamir qorish mashinasi texnik xarakteristikasi

Ish unumdorligi, t/sut..... 30 gacha

| | | | | | |
|---------------|------------------|-----------------|----------------------|-------|-------------|
| <i>Qorish</i> | <i>tog'orasi</i> | <i>sig'imi,</i> | <i>m³</i> | | <i>0,42</i> |
|---------------|------------------|-----------------|----------------------|-------|-------------|


| | | | | | |
|-----------------|-----------------|--------------------|----------------|-------|-----------|
| <i>Kuraklar</i> | <i>aylanish</i> | <i>chastotasi,</i> | <i>ayl/min</i> | | <i>48</i> |
|-----------------|-----------------|--------------------|----------------|-------|-----------|

| | | | | |
|------------------------|-----------------|------------|-------|------------|
| <i>Elektrodvigatel</i> | <i>quvvati,</i> | <i>kVt</i> | | <i>4,0</i> |
|------------------------|-----------------|------------|-------|------------|

| | | | | | | |
|-------------------------------|-------|-------------|----------|------------|----------|-------------|
| <i>Gabarit o'lchamlar, mm</i> | | <i>1900</i> | <i>×</i> | <i>560</i> | <i>×</i> | <i>2234</i> |
|-------------------------------|-------|-------------|----------|------------|----------|-------------|

| | | | |
|---------------|-----------|-------|------------|
| <i>Massa,</i> | <i>kg</i> | | <i>800</i> |
|---------------|-----------|-------|------------|

Mashina montajga yig'ilgan holda keladi. Mashina o'rnatiladigan joyda asosiy montaj o'qlari belgilariga qarab fundament quriladi. Mexanik ravishda 4.3.4 - rasmida ko`rsatilgan spropovkalash sxemasiga asosan ko`tarish krani yoki boshqa takelaj mexanizmi yordamida poydevorga mashina qo'yiladi. Mashinaning gorizontallik holati mashina asosining tekis yuzasiga obtarozini 2 marta bir-biriga perpendikulyar ravishda qo'yib tekshiriladi. Vertikallik holati shoqul yordamida tekshiriladi. Gorizontallikdan og'ish 1 m uzunlikga 0,05 mm, balandlik belgisi bo'yicha ± 5 mm, yuqoridan qaraganda o'qlar bo'yicha og'ish ± 10 mmdan ko`p bo`lmasligi kerak. Gorizontallik holati mashina asosi tagiga po`lat tiqin qo'yish bilan rostlanadi. Mashina poydevorga 12 dona M16 va M12 poydevor boltlari bilan mahkamlanadi.




4.3.-rasm. I8-XTA-6 rusumidagi xamir qorish mashinasi

1- un ta`minlovchi; 2- un dozatori; 3- olinadigan qopqop; 4,5 - joyida turuvchi qopqoplar; 6- qoruvchi sig'im; 7- stanina; 8- un balandligi haqida signal beruvchi moslama; 9- teshik; 10- to`sqliar; 11- boshqarish pul'ti.

Mashina montaji tugagandan keyin un olib keladigan quvur, xamir olib chiqiladigan qurilma va avtomatik o`lchab beradigan stantsiya o`rnataladi. Oxirisini poldan 250 mm yuqorida o`rnataladi.

Mashinani ishlatischdan oldin qorish vallari va tog'ora devorlari orasidagi oraliq tekshiriladi: qorish vallari va tog'ora tagligi orasidagi oraliq 2,5 mm dan; tog'ora devorlari orasidagi oraliq 5 mm dan; kurak va tog'ora yon tomoni orasidagi oraliq 2 mm dan ko`p bo`lmasligi kerak. Sharnirli birikma holati ko`riladi: u bir me`yorda qayrilishi kerak. elektrodvigatel va reduktor vallari o`qdoshligi, tishli uzatma ilashmasi, qopqoqning korpusga zinch yopishishi (korpus va qopqoq orasidagi yopish nuqtalarining barchasida tirqish 1,5 mm dan ko`p bo`lmasligi kerak), blokirovka mexanizmi tekshiriladi. Tog'ora begona predmetlardan tozalanadi. Reduktor moy bilan va maslyonkalar quyuq moylash materiali bilan to`ldiriladi.



4.4.-rasm. I8-XTA-6 mashinasini spropovkalash sxemasi

Mashina birinchi salt holatda 2-3 soat mobaynida sinovdan o'tkaziladi. Ishlashi normal holatda bo`lsa, poshipniklar isib ketmasa, begona shovqin bo`lmasa, mashina yuklama ostida 4 soat mobaynida tekshiriladi. Bunda unni o'lchab beruvchi stantsiya ishi tekshiriladi. Un miqdori va qorilayotgan xamir konsistensiyasi qabul qilingan retseptura bo'yicha bo`lishi kerak. Ishlash paytida shovqin, zarba paydo bo`lsa mashina to`xtatiladi, sababi aniqlanib bartaraf qilinadi. Xamir qorish mashinasida uchraydigan nosozliklar va ularni yo`qotish yo'llari 4.6.- jadvalda ko`rsatilgan.

4.6.-jadval. I8-XTA-6 xamir qorish mashinasida uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish yo'llari

Nosozlik va buzilish

Keltirib

Bartaraf etish yo`li

chiqaruvchi sabab

| | | | | | | |
|------------------------|---------------|----------------|-------------------|------------------|------------------|---------|
| Mashinani | ishga | Elektr | toki | olib | Magnitli | |
| tushirganda | qoruvchi | keluvchi | | puskatellarda | | va |
| vallar aylanmaydi | | apparaturada | | klemmalarda | | |
| Ishlayotgan | mashina | kuchlanish | yo`q | kuchlanish | borligi | |
| qorish | tog'orasida | Tog'oraga | qattiq | tekshirilib, | nosozlik | |
| zarba | va | tirnalish | begona | predmet | bartaraf etiladi | |
| tovushi eshitiladi | | tushgan | | Mashina | to`xtatib | |
| Mashina | yuritmasi | Qoruvchi | | tog'oradan | begona | |
| baland | ovozda | kuraklardan | biri | predmetni | olib | |
| ishlaydi | | tog'ora | devoriga | tashlash kerak | | |
| Qorish | valining | tegadi. | | Qoruvchi | valga | |
| podshipniklari | haddan | O`rnatuvchi | shtift | kurak | xvostovikini | |
| tashqari isiydi | | joyidan | chiqqan | qo`yib, | | |
| Mashina | yuritmasi | yoki | singan | va | mahkamlovchi | |
| katta | yuklama | bilan | skrebok | | gaykalarni | qattiq |
| ishlaydi | va | ko`p marta | tog'oraning | yon | tortish kerak | |
| o`z-o`zidan | o`chadi | | devoriga uriladi. | Singan | shtiftni | |
| Uchqun | sachrashi | Qoruvchi | | val | olib,skrebokni | joyiga |
| ko`rinadi, | izolyatsiya | qiyshayib, | kuraklar | o`rnatib, | | valga |
| yonish hidi | seziladi | tog'ora | devoriga | mahkamlash lozim | | |
| | | tegadi. | | Qoruvchi | val | olinib, |
| Xamir | qoruvchi | Xamir qoruvchi | val | rixtovka | | qilinib |
| mashina | ishlasada | va | reduktor | joyiga | yana | montaj |
| xamir qorilmaydi | | shesternyasi | | qilinadi. | | |
| | | o`qdoshligi | yo`q. | Reduktor | | holati |
| | | Yuritma | | tekshirilib | | o`qlar |
| | | shesternyalari | | qiysiqligi | | |
| | | kam | moy | bilan | yo`qotiladi | |

| | |
|-----------------------|-----------------------|
| ishlaydi. | SHesternya tishlariga |
| Shesternya tishlari | moy surtiladi. |
| yevilgan. | Shesternyalar |
| Podshipnik | ta`mirlanadi yoki |
| korpusida xasta | yangisiga |
| paydo bo`lgan. | almashtiriladi.Xasta |
| Podshipnik | yo`qotiladi Boltlar |
| korpusining boltlari | bir oz |
| haddan tashqari | bo`shatiladi.Qalpoqli |
| qattiq tortilgan. | maslenka bilan |
| Moylash | podshipnik |
| materialining | korpusiga moy |
| yo`qligi | beriladi.Mashina |
| Qorilayotgan xamir | dozatorini rostlab, |
| namligi juda past, | 10-15 s ichida |
| xamir qattiq | berilayotgan unni |
| Elektrsim uzilgan, | tarozida o`lchash |
| izlayatsiyasi shikast | lozim.Tezda |
| etgan. | elektrodvigatelni |
| Qoruvchi vallar bir- | o`chirib, elektrsimni |
| biriga nisbatan | almashtirib, |
| noto`g`ri aylanyapti | izolyatsiyani qayta |
| | qo`yiladi |
| | Elektrodvigatel |
| | klemmasi |
| | almashtirib ulanadi |

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Farsh aralashtirgich $\text{J}5-\Phi\text{M}2-M$ montajga yig'ilgan holda keladi. Oldindan qurilgan fundamentga takelaj mexanizmlari bilan o'tqaziladi va obtarozi yordamida gorizontallik holatini tekshiriladi. Fundamentga mashina $M18$ fundament boltlari bilan mahkamlanadi. Asosiy yeylimdigan detallari: aralashtirish vintlari, ularni ushlab turadigan valning podshipniklarda tayanib turadigan bo'yinchasi va vintlar mahkamlangan joyi. Ularni ta'mirlash detallarni qayta tiklash usullari bo'yicha olib boriladi.

*Xamir qorish mashinasini montajga yig'ilgan holda mexanik uslubda olib kelinadi va oldindan tayyorlab qo'yilgan tayanchga o'rnataladi. Xamir qorish mashinasini ta'mirlashda yuritma uzatmalari, qoruvchi organ richagi va podshipniki, krivoship, fundament plitadagi chervyakli shesternya holati ko'rildi.

Davriy ishlaydigan xamir qorish jihozlarining unumdarligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{G}{[60(t_k + t_e)]}, \text{ кг/с}$$

bu erda G – qozonda qoriladigan xamirning og'irligi, kg;

t_k - xamirni qorishga sarflangan vaqt, min;

t_e - qo'shimcha mahsulotlarni solish uchun ketgan vaqt, min.

Uzluksiz ishlaydigan xamir qorish jihozining ish unumdarligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{Z\pi D^2 t \rho n K}{240}$$

bu erda Z – qorish organidagi vallar soni, dona;

D - lopatkalarining chekka nuqtalarini ko'rsatuvchi aylananing diametri, m;

t - lopatkachalar orasidagi qadam, m;

ρ - xamirning zichligi, kg/m³;

n - lopatkachalar valining aylanishlar soni, ayl/min;

K - uzatish koeffitsienti, lopatkachalarining shakliga va uning valga qanday joylashganligiga bog'liq, $K=0,3 - 0,5$.

Davriy va uzlusiz ishlaydigan xamir qorish jihozlarining elektrodvigatel quvvati quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$N = \frac{0,4GR\omega g}{1000\eta}$$

bu erda G – qozondagi yoki sig`imdagi xamirning og`irligi, kg;

R – qorish organining maksimal aylanish radiusi, m;

ω – qorish organining aylanma burchak tezligi, rad/s;

η – jihozni harakatga keltiruvchi uzatmaning f.i.k. $\eta = 0,8 \div 0,85$

g – erkin tushish tezlanishi, m/s².

| Ishlab chiqarish korxonalari | Ishchi organlarining shakli va harakati | Mahsulot turi | Jihozning ish unumдорлиги, kg/s | Hisoblab topilgan geometrik o`lchamlar |
|------------------------------------|---|------------------|--|---|
| Non kombinati | | | | |
| Qandolat fabrikasi | | | | |
| Makaron fabrikasi | | | | |
| Sut kombinati | | | | |

Nazorat uchun savollar.

1. Farsh aralashtirgichlar texnik xarakteristikasi va montaj qilish tartibini tushuntiring.

2. Farsh aralashtirish mashinasini salt holatda va yuklama ostida sinovdan o'tkazush tartibi.

3. TMM-1 M rusumidagi xamir qorish mashinasini montaj qilish qanday amalga oshiriladi?

4. Й8-XTA- 6 rusumidagi uzlusiz ishlaydigan xamir qorish mashinasi tuzilishi, ishlash printsipi va montaj qilish ketma-ketligini tushuntirib bering.

5.I8-XTA-6 rusumidagi xamir qorish mashinasida uchraydigan nosozliklar nimalardan iborat va ularni bartaraf qilish yo`llari haqida ma`lumot bering.

6. Jihoz ish unumdorligining geometrik o`lchamlarga bog`liqligini izohlab bering.

7. Aralashtirish va xamir qorish jihozlarining kinematik sxemasini chizib, kinematik hisobini izohlab bering.

5-tajriba mashg`uloti.

Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda qo'llaniladigan shakl beruvchi jihozlar konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning maqsadi: Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda qo'llaniladigan shakl beruvchi jihozlar konstrukziyasi va ishlashini o'rganish.

Ishning mazmuni:

1. SHakl beruvchi jihozlarning konstruktsiyasini, ekspluatatsiya qilish va ishlash printsiplerini o`rganish.

3. Unumdorligi va talab qilinadigan quvvatni hisoblash.

Ish joyining jihozlari: SHakl beruvchi jihozlar va ko`rgazmali materiallar.

Umumiy ma`lumotlar. Oziq – ovqat sanoatida shakl beradigan jihozlar keng qo'llaniladi. Jumladan, non, qandolat, makaron va go`sht mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida qo'llaniladi.

SHakl beradigan jihozlar ikki xil bo`ladi:

a) mahsulotlarga ishqalanish bilan shakl beruvchi;

b) mahsulotlarga qoliplab shakl beruvchi.

Mahsulotlarga ishqalanish bilan shakl beradigan jihozlarning asosiy ish organlari quyidagilardan iborat bo`ladi: konussimon, tsilindrsimon va yassi lentali.

Mahsulotlarga qoliplab shakl beruvchi jihozlarning asosiy ish organlari quyidagilardan iborat bo`ladi: barabanli, shakilli, shakilli zanjirli, rotatsion, aylanma shakl beruvchi stol va turli xil shakl beruvchi shpritslar.

SHakl beradigan jihozlar quyidagi qismlardan iborat bo`ladi: shakl berish organi, ishchi organni harakatga keltiruvchi val, elektrodvigatel va uzatmalardan iborat.

Xamirga shakl berish mashinasi. *XT3-1* rusumli xamirga shakl berish mashinasi bug'doy unli xamirga shakl berish uchun qo'llaniladi. Mashina yuritmasi elektrodvigatel va ponasimon tasmali uzatma orqali bajariladi. Tasmali uzatmaning etaklanuvchi shkivi xamirni yozadigan golovkaning pastki valiki valiga o`rnataladi. Bu valning ikkinchi uchida shesternya o`rnatalgan. Bu shesternya tishli uzatmalar orqali harakatni ustki qo'zg'almas valikka va ko`taruvchi transportyorning etaklovchi barabaniga etkazadi. Etkazib beruvchi transportyor esa zanjirli uzatma orqali harakatlantiriladi.

XT3-1 xamirga shakl berish mashinasi

texnik xarakteristikasi

Ish unumdorligi, dona/min 100 gacha

YUritma quvvati, kVt 1,1


Gabarit o'lchamlar, mm 2770 × 6957 × 1330

Massa, kg 510

Mashina zavod-tayyorlovchidan qadoqlangan yashiklarda olib kelinadi. Montaj joyiga mexanik uslubda keltiriladi. Mashina montaj o`qlari belgilanadi va polga o`rnataladi. Gorizontallik holati obtarozini mashinaning xamir yozadigan golovkasi korpusining ustki yuzasiga qo'yib tekshiriladi. Bunda gorizontallik holati aniqligi 1 m uzunlikga 0,1 mm, balandlik belgisi bo'yicha og'ish ± 10 mm, yuqorida qaraganda o'qlar bo'yicha og'ish ± 10 mm bo'lishi kerak. Gorizontallik holati stanina tagiga po`lat tiqin qo'yish bilan rostlanadi. Mashina polga 4 dona bolt bilan mahkamlanadi. Yoziladigan golovkali mashina stanimasi o`rnatilgandan keyin ko`taruvchi transportyor, poddon va ko`targich o`rnataladi; transportyor qiyalik burchagi 8^0 ($0,1745$ rad) dan oshmasligi lozim. Bu ko`targichning

rostlanadigan vintini aylantirib rostlanadi. Mashina o`rnatilgandan keyin barcha korriziyaga qarshi qatlamlar tozalanadi. Xamir bilan kontaktda bo`ladigan qiladigan barcha ishchi organlar vetosh bilan artiladi,sovun yoki sodaning issiq eritmasi **va sovuq suv bilan yuviladi**, quruq qilib artiladi va eritilgan margarin tiladi

surtiladi.



5.1- rasm. XT3-1 xamirga shakl berish mashinasi

1-tashuvchi transporter; 2- profil beruvchi qalqon; 3- shakl beruvchi transportyor; 4,6,15- shturvallar; 5- havo keladigan nasadka; 7, 9,10,12,13 - valiklar; 8- etkazuvchi transportyor; 11- stanina; 14- egiluvchan panjara; 16-yo`naltiruvchi.

Mashinani ishlatishdan oldin ponasimon va zanjirli uzatmalar tarangligi va valiklar orasidagi oraliqlar tekshiriladi: yo`naltiruvchi va xamir yoziladigan valiklar oralig'i $0,15\text{ mm}$; xamir yoziladigan valiklar oralig'i birinchi juftlik uchun $5-12\text{ mm}$; ikkinchi juftlik uchun $3-9\text{ mm}$; ko`taruvchi transporter lentasi va presslovchi plita oralig'i $0,2\text{ kg}$ massali xamir zuvalasi uchun $25-30\text{ mm}$, $0,44\text{ kg}$ uchun – $35-45\text{ mm}$, $1,1\text{ kg}$ uchun – $45-55\text{ mm}$; ko`taruvchi transporter lentasi va shakl beruvchi plita oralig'i $0,2\text{ kg}$ massali xamir zuvalasi uchun $20-25\text{ mm}$, $0,44\text{ kg}$ uchun – $30-40\text{ mm}$, $1,1\text{ kg}$ uchun – $40-50\text{ mm}$ bo`lishi kerak. Hamma ishqalanadigan detallar L markali yog'li solidol bilan moyланади.

elektrodvigatel shkivini qo`l bilan aylantirib, ishchi organlarning bir-necha marta aylanashi ta`minlanadi. Hamma mexanizmlar normal ishlashiga ishonch hosil qilgandan keyin mashina salt holatda ishga tushiriladi va 2 soat sinovdan o`tkaziladi.

Mashinani har bir smena oxirida elektrodvigatelning o`chirilgan holatida tozalash kerak. Barabanning ishchi sirtini shetka va kurakcha bilan barabanni aylantirib tozalanadi. Ishqalanayotgan yuzalar moyidan xabardor bo`lib turish lozim. Har oyda bir marta podshipniklar moylash holati tekshirilib boriladi. Xamirga shakl berish mashinasini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy nosozliklar va ularni yo`qotish usullari quyidagi 4.3.5- jadvalda keltirilgan.

5.1.- jadval. Xamirga shakl berish mashinasini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy nosozliklar va ularni yo`qotish usullari

*Nosozlik va Keltirib chiqaruvchi Bartarafe etish yo`li
buzilish sabab*

| | | | |
|---------------------------------------|--------------|-------------------|--------------------|
| Xamir bo`laklari Mashina | ishchi | Ishchi | organlarni |
| mashina ishchi organlari | yaxshi | mukammal tozalash | |
| organlariga yuvalmagan. | Berilayotgan | havoni | |
| yopishib qoladi Ishchi | organlar | miqdorini | ko`paytirish |
| Xamirga ishlov yaxshi quritilmagan. | yoki | yo`nalishini | rostlash |
| berishda ikkiga | | kerak | |
| bo`linadi | Xamir | bo`laklarini | Xamir bo`laklarini |
| Xamirga shakl ishlov berishga | bir | berishni | rostlash |
| beruvchi qism me`yorda | Shakl | beruvchi | baraban |
| yo`naltiruvchiga berilmasligi | ustiga | un | sepish |
| yopishib qolyapti oqibatida | miqdorini | ko`paytirish | |
| Xamir bo`laklari xamir bo`laklarining | | | |

| | | | | |
|------------------|-----------------------|---|---------|-------|
| noto`g'ri | shakl ishchi | organlar Pichoqlar | va | shakl |
| bilan chiqadi | sirtiga | yopishib beruvchi | | |
| Transporter | qolishi | valiklar orasidagi oraliqni | | |
| lentasining | Pichoqlar | va shakl rostlab , ular orasini 0,15 | | |
| barabandan | bir beruvchi | valiklar mm qilish kerak | | |
| tomonga qochishi | orasidagi | oraliq Ko`tarish mexanizmlari | | |
| | oshgan | yordamida plita holatini | | |
| | Presslovchi | yoki rostlash | | |
| | shakl | beruvchi Tortuvchi | baraban | |
| | plitaning qiyshayishi | holatini rostlash | | |
| | Tortuvchi | baraban Lentani ochib, | to`g'ri | |
| | qiyshayishi | tikish | | |
| | Lenta | noto`g'ri | | |
| | tikilgan | | | |

III-1 M rusumidagi shakl beruvchi mashina . Shakarli pechen'elarga shakl berish uchun rotorli shakl beruvchi mashina *III-1 M* ishlataladi. Mashinaning asosiy ishchi organlari bo`lib yuklovchi voronka, yuzasi ariqchali valik, shakl beruvchi rotor, tozalovchi pichoq va lentali transporter xizmat qiladi. Lentali transporter yuritma va tortuvchi baraban hamda yo`naltiruvchi roliklardan iborat.

Mashina elektrodvigatel, ponasimon tasmali uzatma va tezliklar variatori orqali harakatlantiriladi. Tezliklar variatori orqali ishchi organlar harakat tezligi rostlanadi. Transporter harakat tezligini esa yuritma barbani yuzasidagi qo`zg'aluvchan segmentlarni ochish orqali kattalashtirib o`zgartirish mumkin. Pichoq holati ikki tomonlama chervyak-vintli mexanizm hisobidan rostlanadi. Qabul qiluvchi voronka yuqorisiga himoya panjara o`rnatilgan. ehtiyoj panjara yuqoriga ko`tarilganda elektrodvigateli o`chirish moslamasiga tegib ketadi va o`chirgich elektrodvigatel ishini avtomatik ravishda to`xtatadi.

Shakl beruvchi IIIP-1 M mashinasining

texnik xarakteristikasi

Ish unumdorligi, kg/soat.... 1000

Shakl beruvchi rotor o`lchamlari, mm:

uzunligi..... 800

diametri..... 200


aylanish chatotasi ayl/min..... 10-18

Yuritma quvvati, kVt 6,6

Gabarit o`lchamlar, mm 2000 × 1665 × 1242

Massa, kg 2000

Etkazuvchi transporter



5.2 rasm. IIIP-1 M shakl beruvchi mashina umumiyo ko`rinishi.

1- tezlik variatori; 2- lotok; 3,5- chervyak-vintli mexanizm; 4- qo'zg'almas pichoq; 6- valik; 7- ta'minlovchi voronka; 8- eletrodvigatelni o'chirish moslamasi; 9- shakl beruvchi rotor; 10- yuritma barabani; 11- baraban; 12- yo'naltiruvchi roliklar; 13- transporter; 14- elektrodvigatel; 15- yo'naltiruvchi pichoq.

Mashinani o`rnatishdan oldin asosiy montaj o`qlariga qarab poydevor quriladi. Mexanik yo`l bilan mashina montajga olib kelinib poydevor ustiga qo`yiladi. Gorizontallik holati tekshiriladi. Bunda gorizontallik holati aniqligi 1 m uzunlikga $0,1\text{ mm}$, balandlik belgisi bo`yicha og`ish $\pm 10\text{ mm}$, yuqorida qaraganda o`qlar bo`yicha og`ish $\pm 10\text{ mm}$ bo`lishi kerak. Gorizontallik holati stanina tagiga po`lat tiqin qo`yish bilan rostlanadi. Mashina fundamentga 4 dona $M20$ poydevor boltlari bilan qotiriladi. Mashinani salt holatda sinovdan o`tkazishda transportyor lentasining barabandan chap yoki o`ngga chiqib ketishi yoki barabanga nisbatan sirpanib, harakatlanmay qolishini tortuvchi va rostlovchi mexanizm orqali bartaraf etiladi. Mashina sinov paytida begona shovqinsiz bir me`yorda ishlashi kerak. Salt holat sinovi ikki soat davom etadi.

HOM-2 rusumidagi karamelni Sovutish mashinasi. Bu mashina karamel massasini uzlusiz ravishda sovutish va unga retsepturada ko`zda tutilgan qo`shimchalarni mexanizatsiyalashtirilgan usulda qo`shish uchun mo`ljallangan bo`lib karamel ishlab chiqaruvchi mexanizatsiyalashtirilgan uzlusiz yizimlarda qo`llaniladi va zmeevikli vakuum- apparatdan keyin o`rnataladi.


Karamelni sovutish mashinasi (4.3.7 - rasm) qabul qilish voronkasi 3, aylanadigan sovutish barabanlari 5 va 6, qiya sovutish plitasi 7, kristalik kislota, essentsiya va oziqaviy bo`yoqlarni dozalash uchun dozatorlar 8 va 9, o`raladigan tarnovchalar 10, cho`zuvchi tishchali g`ildirakchalar 11 dan iborat. Barabanlar 5, 6 **va qiya plita** 7 ning ichi bo`sh bo`lib, ular uzlusiz ravishda $12\text{-}18^{\circ}\text{C}$ temperaturga ega bo`lgan vodoprovod suvi bilan sovutiladi. Mashinaning ishchi organlari elektrodvigatel 1, reduktor 2, tishli va zanjirli uzatmalar sistemasi yordamida harakatlantiriladi.

Namligi 1,5-3 % gacha, qaynatilgan karamel massasi vakuum-apparatdan qabul qilish voronkasi 3 ga quyiladi, aylanadigan sovutish barabanlari 5 va 6 orasidan o`tadi va qalinligi $4\text{-}5\text{ mm}$ va eni $400\text{-}500\text{ mm}$ bo`lgan tasma ko`rinishida qiya sovutish plitasi 7 bo`ylab uzlusiz harakatlanadi. Pastki sovutish barabani yuzasi bo`ylab o`tish paytida karamel massasi tasmasida yopishish oldini oladigan va $12\text{-}30^{\circ}$ burchak ostida o`rnatalgan qiya sovutish plitasi bo`ylab yaxshi o`tishni

ta`minlaydigan qobiq hosil bo`ladi. Bunday burchakdagи qiyalikda massa plita bo`ylab bir tekis tezlik bilan sirpanadi. Barabanlar 5 va 6 orasidagi tirkish maxovik 4 bilan rostlanadi. Plita 7 ustida, o`rovchi tarnovchalar oldida dozatorlar 8 va 9 o`rnatilgan. Ulardan karamel massasining tasmasi yuzasiga ma`lum nisbatda uzlusiz ravishda kristalli limon kislotasi, bo`yoq, essentsiya beriladi. Sovutish plitasining pastki qismida karamel massasi tarnovchalar 10 orasidan o`tishi paytida tasma chetlariga o`raladi. Bunda tasmaningsovugan qobig'i ustiga, qo'shimchalar esa uning ichida qoladi. Keyin massa cho`zuvchi tishchalar 11 orasidan o`tkaziladi. U tasmaning plita bo`ylab bir tezlikda harakatlanishini ta`minlaydi va qisman bosadi.

Mashinaning unumdorligini qabul qilish voronkasida o`rnatilgan to`sinq yordamida, karamel massasi tasmasining qalinligini o`zgartirish yo`li bilan rostlash mumkin.

Karamel massa tasmasi sovutish mashinasidan taxminan 20 s vaqt ichida o`tadi. Bu vaqtda 125-130⁰C dan 90-95⁰C gacha sovutiladi. Massaning oxirgi temperaturasini sovutiladigan suvning miqdori va tasmaning qalinligini o`zgartirish yo`li bilan rostlash mumkin.



5.3- rasm. Karamelni sovutish mashinasi NOM-2 umumiy ko`rinishi.

HOM-2 tipidagi karamelni sovutish mashinasi texnik xarakteristikasi


| | |
|---|--------------------------|
| <i>Ish unumdorligi, kg/soat.....</i> | <i>700 gacha</i> |
| <i>Sovutish sirti yuzasi, m²</i> | <i>0,6</i> |
| <i>Sovulatiladigan karamel joylashgan lenta harakat tezligi, m/min.....</i> | <i>5</i> |
| <i>YUritma quvvati, kVt</i> | <i>1,0</i> |
| <i>Gabarit o`lchamlar, mm</i> | <i>2000 × 960 × 1760</i> |
| <i>Massa, kg</i> | <i>775</i> |

Sovutish mashinasi montajga yig'ilgan holda keladi. Mashina poydevrga o'rnatilib, gorizontallik holati obtarozini yuklovchi voronkaning tekis joyiga ikki marta o`zaro perpendikulyar ravishda o`lchash orqali aniqlanadi. Gorizontallik holati aniqligi 1 *m* uzunlikg a 0,3 *mm*, balandlik belgisi bo'yicha og'ish $\pm 10\text{ mm}$, yuqorida qaraganda o`qlar bo'yicha og'ish $\pm 10\text{ mm}$ bo'lishi kerak. Gorizontallik holati stanina oyoqlari tagiga po`lat tiqin qo'yish bilan rostlanadi va poydevorga to`rt dona *M16* poydevor boltlari bilan mahkamlanadi. Mashinaga sovuq va ishlatilgan suv quvurlari biriktiriladi. Barcha podshipniklar va mexanizmlar konsistentli moy bilan surtiladi. Ishlatishdan oldin yuritmadagi zanjirlar echilgan holda barabanlar qo'l bilan aylantiriladi: ular ravon va turtkisiz aylanishi kerak. Yulduzchalarga zanjir o`tkaziladi va mashina bir soat mobaynida salt holatda sinovdan o`tkaziladi.

Presslash jihozlari

ЛПЛ-2 M rusumidagi press. Shnekli makaron presslari xamir qorish va xom makaron mahsulotlariga shakl berish uchun qo'llaniladi. ***ЛПЛ-2 M rusumidigi shnekli press*** quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan: uzatma reduktori 1; me`yorlovchi qurilma 2; xamir qorish mexanizmi 3; presslovchi qism 4; shishiruvchi qurilma 5; quvurlar tizimi va presslovchi qobiq 6; stanina 7 ; ***kesish***

mexanizmi; aylana matritsalar to`plami va vakuum tizimi



5.4- rasm. ППЛ-2 М makaron pressi umumiy ko`rinishi.

Me`yorlovchi qurilma unni me`yorlovchi shnekli me`yorlagichdan, cho`michli suv me`yorlagich va uzatma reduktorlaridan iborat. Reduktor konstruktsiyasi cho`michli suv me`yorlagich barabanining uzluksiz harakatini ta`minlaydi.

Xamir qorish mexanizmi ichiga diametri 60 mm li val joylashtirilgan zanglamaydigan po`latdan yasalgan tog'oradan iborat. Valga quyidagi ketma-ketlikda ishchi organlar mahkamlangan: tog'ora yon devorlariga yopishgan xamirlarni tozalovchi pichoq ; tog'orada xamir sathini talab darajasida bo`lishini, xamirni qayta ishlanishini va tog'ora ichida harakatini ta`minlovchi etti dona parrak ; presslovchi qobiqqa xamir kirishini ta`minlovchi turtgich.

Xamir qorish mexanizmidan presslash qobig'iga kirafigan xamir miqdori zaslonda yordamida boshqariladi.

Xamir qorgich yuqoridan uning valiga o`rnatilgan kulachokli mufta orqali muhofazalangan panjara bilan biriktiriladi. Qopqoqni ochish faqatgina xamir qorgich vali aylanishi to`xtagandan keyingina mumkin bo`ladi.

Presslovchi qobiq ikki tomonida flanetslari mavjud bo`lgan tsilindrik quvurdan iborat. Qobiq bir flanets bilan asosiy uzatmaning reduktoriga, ikkinchi flanets bilan

presslovchi kalakga qotiriladi. Qobiq ichiga uch yo`lli zveno bilan tugallanadigan bir yo`lli presslovchi shnek o`rnatilgan. SHnek o`rtasida o`ramli parrakni ajratish joyi mavjud va bu erda xamirning o`tuvchi kanal orqali harakatini ta`minlash maqsadida shayba o`rnatilgan.

Presslovchi qobiqning oxirida suv ko`ylagi mavjud bo`lib, bu ko`ylak orqali vodoprovod suvining tsirkulyatsiyasi amalga oshiriladi.

Presslovchi kallak yaxlit konstruktsiyali gumbazsimon shaklda bo`lib bir dona aylana matritsani o`rnatish uchun mo`ljallangan. Presslovchi kallakning ichki hajmi 9 dm^3 ni tashkil qiladi.

Shishiruvchi qurilma elektrosvigatelga o`rnatilgan markazdan qochma ventillyator va aylana teshiklari mavjud soplodan iborat. Soplodagi teshiklar aylanasining diametri 8 mm ni tashkil qilib, havo o`tishi uchun foydali qismi 45-50 % dan iborat. Soploga ventillyator orqali berilayotgan havo teshiklar orqali o`tib ho`l makaron mahsulotlarini shishiradi.

Quvurlar tizimi issiq va sovuq suv berish hamda to`kish maqsadida va presslash qobig'ini vakuum nasos bilan birlashtirish uchun ishlataladi.


Press stаниси payvandlangan karkasdan iborat bo`lib, unga pressning ishchi jihozlari qotiriladi. Bundan tashqari stанинaga to`sqli maydoncha va pressga xizmat ko`satisfish uchun norvoncha ham mahkamlanadi.

Pressning vakuum tizimi xamir o`tkazish kanalida atmosfera bosimidan past bosimni ushlab turishi uchun xizmat qiladi. Bu esa o`z navbatida xamir massasidagi bug'-havo aralashmasini ajratib olishga sabab bo`ladi hamda xamirning zich strukturasini hosil qiladi.

Makaron pressining barcha asosiy qismlari stанинaga o`rnatilgan. Montajdan oldin loyihada ko`rsatilgandek o`lchov-belgilash ishlari olib boriladi. Montajga press mexanik tarzda ko`tarish mashinasi yoki mexanizmi yordamida 4.3.8-rasmida ko`rsatilgan spropovkalash sxemasi asosida olib kelinadi, oyoqlariga mos ravishda poydevor quriladi. Poydevor ustiga quyilib, gorizontallik va vertikallik holati obtarrozi, shoqul yordamida tekshiriladi. Gorizontallik holati aniqligi 1 m uzunlikga 0,08-0,1 mm, balandlik belgisi bo`yicha og'ish $\pm 10 \text{ mm}$, yuqorida

qaraganda o`qlar bo`yicha og`ish $\pm 10 \text{ mm}$ bo`lishi kerak. Gorizontallik holati stanina oyoqlari tagiga po`lat tiqin qo`yish bilan rostlanadi va fundamentga to`rt dona $M20$ poydevor boltlari bilan mahkamlanadi. Mashinani ishlatishdan oldin barcha ishchi mezanzimlar moylash joylarig moy surtiladi va qo`l bilan aylantiriladi. Barcha ishchi organlar engil aylanishi kerak.

Pressni ishlatish natijasida qoruvchi vallar podshipniklari, qoruvchi kuraklar, matritsalar eyilishi, kuraklarni mahkamlovchi boltlar sinishi, dozator va yuritma mexanizmlari ishdan chiqishi mumkin. Eyilgan matritsa, podshipniklar, singan boltlar yangisiga almashtiriladi, qolgan barcha ishchi organ va mexanizmlar yuqorila ko`rib o`tilgan ta`mir usullari bilan ta`mirlanadi.



5.5- rasm. Pressni spropovkalash sxemasi

Qandolat mahsulotiga zanjirli shakl beradigan jihozning unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{60 \cdot \vartheta c}{KL} \text{ кг/сект}$$

bu erda ϑ – shakl beradigan zanjirning chiziqli tezligi, m/min;

c - jihozning foydalanish koeffitsienti;

K - 1 kg qandolat mahsuloti necha donadan iborat;

L - shaklli zanjirning qadami, m.

Qandolat mahsulotiga rotatsion zanjirli shakl beradigan jihozning unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi;

$$Q = \frac{zn}{K} \text{ кг/соат}$$

bu erda z – rotordagi pichoqlar soni, dona;

n - rotoring aylanishlar soni, ayl/min;

K - 1 kg qandolat mahsuloti necha donadan iboratligi.

Ish organi kesik konussimon bo`lgan xamirga shakl beruvchi jihozning unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{\lambda \pi D n \mu}{d} \text{ бўлак/минут}$$

bu erda λ – shakl beruvchi jihozga uzatilgan bir bo`lak xamirning o`lchamini hisobga oluvchi koeffitsient, $\lambda=0,8 - 0,85$

D - tashuvchi ishchi qismining ish yuzasi diametri, m;

n - tashuvchi ishchi qismining aylanish chastotasi, ayl/min;

μ - qovushqoqlik koeffitsienti.

d - bir bo`lak shakl berilgan xamirning diametri, m;

Bu quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$d = \sqrt{\frac{6d}{\pi \rho}}$$

bu erda d – shakl beruvchi jihozga uzatiladigan bir bo`lak xamiring og`irligi, kg;

ρ - xamirning zichligi, kg/m. $1100 - 1200 \text{ kg/m}^3$.

Lentali xamirga shakl beruvchi jihozning unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{60 \vartheta_a}{a} \text{ бўлак/минут}$$

bu erda a – xamir orasidagi qadam, m;

ϑ_a - shakl berish davrida bir bo`lak xamirning aylantirish tezligi, m/s;

$$\vartheta_a = (\vartheta_{\tau} - \vartheta_{\pi}) \varepsilon / 2 \quad \text{м/с}$$

bu erda ϑ_{τ} – tashuvchi lenta tezligi, м/с;

ϑ_{π} – shakl beruvchi lenta tezligi, м/с;

ε - sirpanish koeffitsienti, $\varepsilon = 0,8$ qabul qilinadi.

Kotletga shakl beruvchi jihozlarning unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = 60xyn \quad \text{дона/соат}$$

bu erda x – barabandagi shakl beruvchi barabanlar soni, dona;

y – qatordagi shakl beruvchi elementlar soni, dona;

n – barabanning yoki shakl beruvchi stolning aylanishlar soni, ayl/min.

Agar ta`minlovchi parrakli bo`lsa u holda unumdorlik parrakning o`lchamiga qarab hisoblanadi:

$$Q_0 = 3600 \frac{\vartheta b z \omega}{2} (r_1^2 - r_2^2) (\sin \alpha - \mu \cos \alpha) \sin \alpha \cos \alpha \quad \text{м}^3/\text{коат}$$

bu erda b – parrakning eni, м;

z – bir qatordagi parrakning soni, dona;

ω – parrakning aylanma burchak tezligi, 1/sek;

r_1 – parraklarning maksimal radiusi, м;

r_2 – parrakning minimal radiusi, м;

α – parrakning qiyalik burchagi, grad;

μ – farshning parrakga nisbatan sirpanish ishqalanish koeffitsienti;

Pecheniyalarni shtamplab shakl beradigan rotatsion jihozning ish unumdorligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$Q = 60mnc/K$$

bu erda m – shtamdagи matritsalar soni, dona;

n – bir minutdagи shtamplash soni, dona;

c – formalashdagi hosil bo`lgan chiqindilarni hisobga oluvchi jihozning ishlatish koeffitsienti;

K – 1 kg tayyor mahsulotdagi pecheniyalar soni, dona.

Matritsaning unumdorligi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q = 0,0036 \vartheta j f \frac{100 - W_{\text{xam}}}{100 - W_{\text{max}}} \quad \text{кг/соат}$$

bu erda ϑ – presslash tezligi, m/s;

j - presslanadigan xamirning hajmiy og`irligi, kg/m³;

f - matritsa teshiklarining ko`ndalang kesimi yuzasi, m².

Trubkali makaron olish uchun ishlatiladigan matritsaning ko`ndalang kesimi yuzasi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$f_M = \frac{\pi n}{4} (d_{\text{тав}}^2 - d_{\text{иЧ}}^2)$$

bu erda n – matritsaning teshiklari soni, dona;

$d_{\text{тав}}$ - shakl beruvchi novaning diametri, m;

$d_{\text{иЧ}}$ - qolip oyoqchalarining diametri, sm.

Vermishel uchun

$$f_B = \frac{\pi n}{4} d^2$$

d - shakl beradigan teshikning diametri, sm.

Lapsha uchun

$$f_L = n l a$$

bu erda l – shakl beruvchi novaning uzunligi, sm;

a - shakl beruvchi novaning eni, sm;

W_{xam} va W_{max} - xamir va quruq mahsulotning namligi, %.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR:

XT3-1 rusumidagi xamirga shakl berish mashinasi mexanik yo`1 bilan montajga olib kelinib poydevor ustiga qo`yiladi. Gorizontallik holati tekshiriladi. Mashina fundamentga 4 dona M20 poydevor boltlari bilan qotiriladi. Mashina sinov paytida begona shovqinsiz bir me`yorda ishlashi kerak. Salt holat sinovi ikki soat davom etadi.

Montajga *ЛПЛ-2 М* usumidagi press mexanik tarzda ko`tarish mashinasи yoki mexanizmi yordamida olib kelinadi, oyoqlariga mos ravishda poydevor quriladi. Poydevor ustiga quyilib, gorizontallik va vertikallik holati obtarrozi, shoqul yordamida tekshiriladi. Pressni ishlatish natijasida qoruvchi vallar podshipniklari, qoruvchi kuraklar, matritsalar eyilishi, kuraklarni mahkamlovchi boltlar sinishi, dozator va yuritma mexanizmlari ishdan chiqishi mumkin. Eyilgan matritsa, podshipniklar, singan boltlar yangisiga almashtiriladi, qolgan barcha ishchi organ va mexanizmlar yuqorila ko`rib o`tilgan ta`mir usullari bilan ta`mirlanadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1.*ХТЗ-1* rusumidagi xamirga shakl berish mashinasini montaj qilish, uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari.

2.*ИИР-1М* rusumidagi shakl berish mashinasining texnik xarakteristikasi va montaj qilish tartibi, uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari.

3.*ЛПЛ-2 М* usumidagi presslash mashinasini montaj qilish tartibi, uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari.

4. SHakl beruvchi jihozlarning asosiy ishchi organlarini sanab o`ting.

5. SHakl beruvchi jihozlarning kinematik sxemasini chizib, kinematik hisobini izohlang.

6-tajriba mashg`uloti.

Oziq-ovqat muhitida quritish apparatlari. Oziq-ovqat muhitida qovurish va pishirish jarayonidagi uskunalarini o`rganish

Ishning maqsadi: Oziq-ovqat muhitida quritish apparatlari. Oziq-ovqat muhitida qovurish va pishirish jarayonidagi uskunalarini o`rganish.

Ishning mazmuni:

1.Oziq-ovqat muhitida quritish apparatlarining konstruktsiyasini, ekspluatatsiya qilish va ishslash printsiplarini o`rganish.

2. Oziq-ovqat muhitida qovurish va pishirish jarayonidagi uskunalarining konstruktsiyasini, ekspluatatsiya qilish va ishslash printsiplarini o`rganish.

3.Unumdorligi, talab qilinadigan quvvatni va issiqlik balansini hisoblash.

Ish joyining jihozlari: Quritish apparatlari, qovurish va pishirish jarayonidagi uskunalar va ko`rgazmali materiallar.

Umumiyl tushunchalar.

Qattiq va pastasimon materiallarni qurituvchi agent yordamida suvsizlantirish jarayoni quritish deb ataladi. Bu jarayonda namlik qattiq faza tarkibidan gaz fazasiga o`tadi.

Quritilgan materiallarni transport vositasida uzatish arzonlashadi, ularning tegishli xossalari yaxshilanadi, uskuna va trubalarning korroziyaga uchrashi kamayadi, materiallarning saqlanish muddati uzayadi.

Issiqlik tashuvchi agentning quritilayotgan material bilan o`zaro ta`sirlashuv usuliga ko`ra quritish jarayoni quyidagi turlarga bo`linadi:

- 1) konvektiv quritish - nam material bilan qurituvchi agent to`g`ridan - to`g`ri o`zaro aralashadi;
- 2) kontaktli quritish - issiqlik tashuvchi agent va nam material o`rtasida ularni ajratib turuvchi devor bo`ladi;
- 3) radiatsiyali quritish - issiqlik infraqizil nurlar orqali uzatiladi;

- 4) dielektrik quritish - material yuqori chastotali tok maydonida qizdiriladi;
- 5) sublimatsiyali quritish - material muzlagan holda, chuqur vakuum sharoitida suvsizlantiriladi.

Oziq – ovqat ishlab chiqarishda xom-ashyo mahsulotlarini pishirish pechlari keng qo`llaniladi. Jumladan, non va qandolat ishlab chiqarish korxonalarida sifatli mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Xom-ashyo mahsulotlarini pishirish pechlari quyidagi asosiy elementlardan iborat bo`ladi: pishish kamerasi, taglik (mahsulotlarni joylashtiruvchi yuza), issiqlik manbasi va yuritmalar.

Pishirish pechlari konstruktsiyasiga qarab yopiq, ochiq va tunelli bo`ladi.

Pech har qanday oshxonaning ajralmas jihozidir. So'nggi paytlarda odamlar uni zamonaviy pechkalar va bug'li qaynatgichlar bilan o'chirishga harakat qilishgan bo'lsa-da, har bir umumiyl ovqatlanish egasi o'zining yuqori afzalligini ko'rib, yuqori sifatli pech sotib olishga harakat qilmoqda. Ushbu texnikani sotib olib, siz go'sht, baliq va sabzavot mahsulotlarini issiqlik bilan ishlaydigan ko'p funktsiyalni oshxona yordamchisiga ega bo'lasiz.

Ushbu uskuna pishirish, qovurish, pishirish va h.k. sodir bo'ladigan yuqori haroratni yaratishga mo'ljallangan. Nonvoyxonalar o'z dasturlarini yirik davlat korxonalarining qandolatchilik, restoran va oshxonalarida topdi. Ushbu ajralmas mahsulot bir vaqtning o'zida bir nechta pechkani almashtiradi. Shuning uchun, har qanday non biznesini ochish uchun pechlar juda zarur.

Pechlarning funktsional maqsadi juda xilma-xildir. Ular nafaqat ovqatni qovurish uchun, balki qovurish, sote qilish, pishirish va boshqa pishirish usullarida ham qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto yarim tayyor mahsulotlar ham pechlarda qayta ishlanadi. Shu sababli, ushbu uskunasiz oziq-ovqat sanoatini tashkil qilish mumkin emas edi.

Professional pechlar sovutish suvi va mahsulot o'rtasida yuzaga keladigan issiqlik uzatish turiga qarab ajralib turadi. Ovqatlanish joylarida tabiiy issiqlik o'tkazuvchanligi bo'lgan shkaflar va majburiy ravishda issiqlik uzatiladigan shkaflar ishlatiladi. Birinchi holda, mahsulotlar isitiladigan sirtlardan termal

o'rganish orqali isitiladi. Bunday pechlar turli darajadagi isitishni talab qilishi mumkin bo'lgan bir nechta idishlarni tayyorlashda foydalanish uchun juda qulaydir. Ikkinchi holda, havo xonani bir tekis isitilishini ta'minlaydigan fan tomonidan tarqatiladi. Majburiy issiqlik uzatiladigan pechda pishirganda, pishirilgan ovqatni ag'darish kerak emas, shuningdek, patnisni almashtirish kerak. Pishirish biznesini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun ko'p funktsiyali jihatidan oddiy shkaflardan farq qiladigan professional pechka shkaflarini o'rnatish kerak. Masalan, nonvoxonadan qandolat va non mahsulotlari pishirilishi uchun oddiy foydalanish mumkin, pech esa juda ko'p turli xil idishlarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

Gaz pechining ishlashining umumiy qoidalari

Gaz pechlarining xilma-xilligiga qaramay, qurilmadan foydalanish uning buzilishiga olib kelmasligi uchun bir nechta umumiy qoidalarga rioya qilish kerak:

1. **Boshlash.** Idish qo'yishdan oldin siz qurilmaning ichki bo'shlig'ini diqqat bilan tekshirishingiz kerak, keraksiz narsalarni u erdan olib tashlang. Ehtimol, kostryulkalar, pishiriqlar va boshqa oshxona idishlari bormi? Ichkarida faqat idish-tovoq uchun panjara stendi bo'lishi kerak.
2. **Pishirish darajasi.** Bu gaz pechini qanday ishlatish bo'yicha ko'rsatmalarning muhim bosqichidir. Uskunalarda, qoida tariqasida, panjara o'rnatilishi mumkin bo'lgan devorlarga oluklar o'rnatiladi va ular uchta darajada joylashgan. Pastki qavat jadal pishirish uchun mo'ljallangan, o'rta daraja barcha oshpazlik uchun universaldir, yuqori qismi tayyor piyola ustida ishtaha beradigan qobiq paydo bo'lishiga yordam beradi.
3. **To'g'ri pishirish / pishirish idishini tanlash.** Siz keramika qozonlarini, maxsus qisma, folga yoki silikon, shisha, quyma temir, keramikadan foydalanishingiz mumkin. Ular go'shtni sabzavot bilan qovurishlari yoki mazali sho'rva tayyorlashlari mumkin. Shirin va shakarsiz kekler (masalan, pizza) uchun maxsus pishirish varag'i (pech bilan ta'minlangan) yoki turli xil pishiriqlar ishlatiladi.

Ba'zi bir idishlarni (masalan, sufle, pechene) pishirish uchun kerakli haroratni belgilash va pishirish uchun tayyor massani pishirish idishining allaqachon isitiladigan joyiga o'rnatish muhimdir. Issiqda pishirish uchun xamir yaxshi ko'tariladi va pishganidan keyin yumshoq, havodor muolajaga aylanadi. Gaz pechining haroratini qanday aniqlashga qiziqasizmi? Ikkita oson usul mavjud:

1. Jihoz ustidagi maxsus tarozida. Zamonaviy jihozlarning old tomonida chiziqli bo'linmalar yoki Tselsiy bo'yicha belgili raqamlar joylashgan. Siz shunchaki qurilma uchun ko'rsatmalarni olishingiz va ma'lumotni topishingiz kerak, shkaladagi belgilar qancha darajaga to'g'ri keladi.
2. 300 darajaga qadar o'lchashga imkon beradigan o'choq termometri bilan.

Yana bir muhim nuqta - gaz pechini qanday qilib to'g'ri yoqish. Avtomatik ravishda yonib ketadigan qurilmalarda haroratni sozlash uchun mas'ul bo'lgan pishirish shkafi panelidagi kranni to'xtashga burish kerak. Keyin avtomatik atesleme tugmasini bosing va 15-20 soniya ushlab turing. Pechdagagi gaz yoqilgandan keyin haroratni sozlash va ichidagi idishlari bo'lgan idishni o'rnatish qoladi. Oddiy o'zgarishlarda siz pechni ochishingiz, quyida kichik teshik topishingiz, unga oldindan yoritilgan gugurt olib kelishingiz va pechka panelidagi kranni burishingiz kerak.

Elektr pechini ishlatish qoidalari

Elektr pechkalari yuqori va pastki isitish elementi bilan jihozlangan. Ba'zi bir birliklarda panjara, konvektsiya mavjud. Ko'proq funksional jihozlar, shuningdek, har qanday mahsulotni bug'lash va muzdan tushirish imkoniyatlari bilan jihozlangan. Bunday uskunani ishlatish hatto tajribasiz oshpazlar uchun ham juda oddiy.

Elektr pechini qanday ishlatish haqida qisqacha ko'rsatmalar:

- qurilmani yoqing va kerakli harorat rejimini o'rnatish,
- qiziguncha jihoz 15-20 daqiqa kutib turing,
- pechkaning eshigini oching va idishni o'rtasiga qo'ying,
- pechni yoping va taymerni o'rnatish,

- signal bergenidan keyin pechkaning eshigini oching va tayyor muolajani oling.

Bunday uskunalarning qulayligi va ishlash muddati elektr pechlariga bo'lgan talabning ikkita tarkibiy qismidir. Bunday asboblar bilan pyuresi, baliq yoki go'shtli sabzavotlar bilan shimgichli kek kunlik va bayramona stol uchun haqiqiy bezak bo'ladi. Aytgancha, idish-tovoqlar nafaqat bezatilgan bo'lsa, balki chiroyli idishga joylashtirilsa juda yaxshi ko'rindi.

Elektr pechlarini ishlatishda 3 ta nuans:

1. Ovqat pishirish paytida siz idishni pishirgichning pastki qismiga joylashtirolmaysiz. Bu jihozning pastki qismida joylashgan isitish elementlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Oziq-ovqat uchun mo'ljallangan idish faqat panjara yoki javonlarda joylashgan.
2. Pechni oshpazlik taomlari pishirish tugashidan bir necha daqiqa oldin o'chirib qo'yish mumkin. Qoldiq harorat idishni tayyor holga keltirish uchun etarli.
3. Idishni teng pishirilgan yoki pishirilgan qilish uchun o'rta rafdan foydalanish yaxshidir. Sabzavot, baliq, go'shtli sho'rvani pishirish eng past darajada.

Bundan tashqari, ma'lum bir idish turini tanlashingiz kerak. Elektr jihozlari uchun keramikadan, o'tga chidamli loydan yoki quyma temirdan yasalgan idishlar juda mos keladi. Metall idishlar, folga ishlatilishi mumkin emas. Bu elektr pechning dizayni bilan bog'liq - metall va uning tarkibidagi konteynerlar elektr o'tkazgichlari bo'lib, qurilma ichidagi uchqun, uning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Pechda pishirish rejimlari va qoidalari

Elektr pechda pishirishning 5 qoidalari:

1. Qurilmaning o'rta darajasida isitish yuqorida va pastdan amalga oshiriladi, shuning uchun u deyarli har qanday taomga mos keladi.
2. Uzoq pishirish uchun, avval minimal haroratni belgilab, idishni pastki javonga qo'yishga arziydi.
3. Go'sht / baliq pishirig'i va pishiriqni 2 rejimda tayyorlash yaxshidir: avval issiqni yuqori qilib qo'ying, oxirida - pastroq.

4. Pishirishni boshqarish uchun pechkaning eshigini cheksiz ochmang, bu pishirish tartibini buzishi mumkin. Ko'rish oynasi orqali kuzatish yaxshiroqdir.
5. Pishirishni boshlashdan oldin, eng yaxshi taomni olish uchun kerakli pishirish rejimini tanlash uchun retseptni diqqat bilan o'rganib chiqishingiz kerak.

Elektr pechlarining zamonaviy modellari foydali variantlar bilan ta'minlangan, ular yordamida siz ekzotik va an'anaviy taomlarni osongina pishirasiz / pishirasiz.

Elektr qurilmalaridagi asosiy pishirish rejimlari:

- **Yuqori va pastki issiqlik.** Pishiriqlar yoki go'shtli shirinliklarni pishirish uchun ideal bo'lgan standart pishirish.
- **Yuqori / pastki issiqlik + fan.** Bu tez pishirish va bir vaqtning o'zida 2 ta pishirish varag'ida ovqat tayyorlashga imkon beradi.
- **Ring isib + fan.** 3 ta paletda juda tez pishirish. Masalan, Bosch pechkasida bu rejim pizza tayyorlash uchun mo'ljallangan.
- **Panjara.** Kichik, ingichka dilimlenmis go'sht yoki baliq bo'laklarini pishirish uchun mo'ljallangan.
- **Isitish.** Past harorat o'rnatilgan ($50-60^{\circ}\text{C}$), siz ilgari pishirilgan idishni isitishingiz mumkin.
- **Muzdan tushirish.** Bu go'shtni, sabzavotlarni, rezavorlarni keyingi pishirish uchun tez va oson muzdan tushirishga imkon beradi.

Gaz pechlari ularning elektr "aka-ukalariga" nisbatan funktsional jihatdan biroz pastroq, ammo shu darajada ular sizga mazali idishlarni pishirishga imkon beradi. Ko'pincha uy bekalari shirinliklar to'liq pishirilmaganidan yoki retseptda oltin qobig'i yo'qligidan shikoyat qiladilar. Bu bilan qanday kurashish kerak? Muffinni qanday pishirishni va gaz pechida birinchi / ikkinchi kurslarni tayyorlashni o'rganing. Pishirish uchun maxsus shakllar yoki to'liq alyuminiy pishirish varag'i ishlatiladi. Aytgancha, siz pech bilan jihozlangan qora panani ishlatmasligingiz kerak. Qoldiq yog 'to'plash uchun mo'ljallangan.

Gaz pechida pishirish qoidalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- **Vaqtqiziydi.** 10-15 daqiqa davomida maksimal harorat o'rnatiladi, keyin u kerakli darajaga o'rnatiladi. Shundan keyingina pechga o'rnatilgan idish.

- **Markazni o'rnatish.** Pishirish shakli eng yaxshi aniq o'rtada o'rnataladi. Shunday qilib, isitilgan havo idish atrofida bir tekis aylanadi.
- **Darajani tanlash.** Yuqori yoki pastki qismida oltin jigarrang qobiq kerakmi? Idishni mos ravishda pastki / yuqori darajaga qo'ying.

Piroglarda oltin qobiqni olishning bir oz sirasi pishirish tugashidan 5 daqiqa oldin bir necha darajani qo'shishdir.

Gaz plitalarining standart versiyalarida faqat 2 isitish rejimi taqdim etiladi va fan yo'q. Qurilmalarda pastroq issiqlik (gaz isitish elementi) va yuqori (gaz yoki elektr panjara) mavjud.

Ovqat pishirish shkafidagi rejimlarni qanday qilib to'g'ri sozlashni o'rganish vaqt masalasidir, yuqorida keltirilgan maslahatlar shubhasiz bu oshxonada yordam beradi. So'nggi savolni ko'rib chiqish qoladi: "Bunday birliklarning maqbul chuqurligi nima?"

Gaz plitalari

Gaz pechlari tejamkor, bardoshli va ishlatish oson. Gaz tsilindridan ishslash qobiliyati tufayli ular berishga va qishloq uyiga mos keladi.

Gaz pechkasining minuslari portlash xavfi. Pishirishdan oldin pechni gaz qochqinligini tekshirib ko'ring.

Gaz pechkasi pechini qanday ishlatishni bilib olaylik:

- pechda oshxona idishlari yo'qligiga ishonch hosil qiling,
- grilni kerakli darajaga
- pechni oldindan qizdiring: buning uchun 10 daqiqa kifoya qiladi,
- pishayotganda pechkaning eshigini tez-tez ochmang: mikroiqlimni buzasiz va pishirish ko'proq vaqt talab etadi.

Agar pechkada termometr bo'lmasa, bir varaq haroratni aniqlashga yordam beradi: 30 sekunddan keyin + 100 ... + 120 °C varaq ozgina sarg'ayadi, + 190 ... + 210 at da sariq-jigarrang rangga aylanadi, +220 at dan keyin u kuyishni boshlaydi.

Elektr pishirgichlar

